

Biznes yuritish qoidalari

Ushbu Biznes yuritish qoidalari (bundan buyon matnda "Qoidalar" deb yuritiladi) tarkibidagi materiallar bilan birgalikda Mustaqil Hamkor Shartnomasining bir qismidir. Herbalife kompaniyasi vaqti-vaqti bilan qoidalarga o'zgartirishlar kiritishi mumkin, bu haqda Mustaqil Hamkorlar elektron pochta orqali xabardor qilinadi.

Mundarija

1	Ishning boshlanishi.....	4
1.1	Mustaqil Hamkorlar Yakka Tartibdagi tadbirkorlardir	4
1.2	Qarz olish yoki majburiy sotib olish zaruratining yo'qligi	4
2	Herbalife mahsulotlarini sotish	4
2.1	Taqiqlangan savdo joylari	4
2.2	Chakana buyurtma shakllari va sotuv hujjatlari.....	4
2.3	Mijozlarga to'lovlarni qaytarish.....	4
2.4	Agressiv savdo	4
2.5	Uchinchi shaxslar tomonidan tarqatish uchun mahsulotlarni sotish	5
2.6	Qadoq, yorliq va materiallarni o'zgartirish	5
2.7	Mahsulot tavsifi va foydalanish bo'yicha tavsiyalar	5
2.8	Identifikatsiya	5
3	Reklama.....	5
3.1	Bayonotlar	5
3.2	Narxlar reklamasi	5
3.3	Herbalife intellektual mulki.....	5
3.4	Reklamani taqiqlash.....	6
4	Savdo va Marketing Rejasi asoslari.....	6
4.1	Bitta Mustaqil Hamkor Shartnomasi bir kishi uchun	6
4.2	Mahsulotlarni munosib shaklda sotib olish	6
4.3	Biznesni rivojlantirishda ishtirok etayotgan shaxslarning harakatlari uchun javobgarlik	6
4.4	Harakatsizlik davri	6
5	Homiylik va yetakchilik.....	7
5.1	TAB Team jamoasi ishtirokchilari tomonidan xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot olish uchun ariza	7
5.2	Boshqa biznesga aralashmaslik	7
5.3	Herbalife bilan assotsiatsiya	7
5.4	Boshqa biznes-imkoniyatlarini targ'ib qilish	7
5.5	Biznesni rivojlantirish vositalarini sotish	7
6	To'g'ridan-to'g'ri savdolar	7
6.1	Savdo va Marketing Rejasini manipulyatsiya qilish	7
6.2	Mijozlar xizmati.....	8
6.3	Yetakchilar tomonidan qo'llab-quvvatlash va Tashkilotni o'rgatish.....	8
6.4	Auksion-saytlarida va uchinchi tomon onlayn-savdo maydonchalarida sotishni taqiqlash (birgalikda "Uchinchi tomon saytlari" deb nomlanadi)	8
6.5	Mustaqil Hamkorlarning veb-saytlari va ilovalari	9
6.6	Kontekstli reklama va qidiruv tizimini optimallashtirish.....	9
6.7	Taqiqlangan biznes-amaliyotlari.....	9
6.8	Potensial mijozlar va tavsiya bo'yicha kelgan odamlar	9

7	Sog'lom turmush tarzi klublari va ofislari	9
7.1	Biznes yuritish uchun joy ijaraga olish yoki sotib olish	9
7.2	Bir nechta Klublarni boshqarish	10
7.3	Klubni yuritish bo'yicha pullik maslahatlarni taqiqlash	10
7.4	Klubning Mas'ul Tashkilotchisi	10
7.5	Klub binolaridan birgalikda foydalanish	10
7.6	Mahsulotning chakana savdosi	10
7.7	Herbalife mahsulotlarini tayyorlash.....	10
7.8	Yetkazib berish.....	10
7.9	Foyda olish uchun Klublarni sotishni taqiqlash	10
7.10	Noturar joydagi Klub peshtaxtasi va nomi	11
7.11	Turar-joy bo'lmagan binoda Klubning tashqi bezagi.....	11
8	Xalqaro biznes	11
8.1	Biznes uchun ochiq bo'lmagan mamlakatlar va hududlardagi faoliyat.....	11
8.2	Mahsulotlarni eksport qilishni taqiqlash	11
8.3	Xitoyda biznes yuritish	11
8.4	Mamlakatlar, mintaqalar va alohida shaxslar uchun taqiqlar.....	11
9	Umumiy Xulq-Atvor Qoidalari.....	12
9.1	Amaldagi Qonunchilik va qoidalarga rioya qilish	12
9.2	Herbalife kompaniyasiga ishonchli va tegishli ma'lumotlarni taqdim etish	12
9.3	Herbalife obro'si va imidjini qo'llab-quvvatlash.....	12
9.4	Bosim o'tqazish, diskriminatsiya va noo'rin xatti-harakatlarga munosabat.....	12
9.5	Herbalife tomonidan tekshiruvlarda hamkorlik.....	12
9.6	Raqobat to'siqlarini taqiqlash	12
9.7	O'yin faolliklarini targ'ib qilish.....	12
10	Ma'muriy Qoidalar	13
10.1	Shartnomada nazarda tutilgan huquqlar	13
10.1.1	Shartnoma tuzish uchun talab etiladigan minimal yosh.....	13
10.1.2	Turmush o'rtog'i yoki umr yo'ldoshini tan olish	13
10.2	Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berish.....	13
10.2.1	Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini boshqa shaxsgaberish, sotish yoki qayta topshirish.....	13
10.2.2	Herbalife Mustaqil Hamkori bo'lmagan shaxsga hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini sotish, berish yoki qayta topshirish mumkinligi.....	13
10.2.3	Maqom va imtiyozlar.....	13
10.2.4	Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini bergandan keyin javobgarlik	14
10.3	Turmush o'rtoqlarning yoki umr yo'ldoshlarning ajrashishi.....	14
10.3.1	Mustaqil Hamkorning yangi Shartnomasini rasmiylashtirish.....	14
10.3.2	Mustaqil Hamkorning dastlabki shartnomasiga o'zgartirish kiritish talabi	15
10.3.3	Boshqa homiy ostida Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish / Mustaqil Hamkorning boshqa biznesida ishtirok etishi	16
10.3.4	Turmush o'rtoqlar yoki umr yo'ldoshlarning ajrashishi va Herbalife Savdo va Marketing rejasi	16
10.4	Meros*	18
10.5	Hamkorlik faoliyatini tugatish.....	18
10.6	Mahsulotlarni iste'molchilarga sotish.....	18
10.7	Biznesni ro'yxatdan o'tkazish va soliqlar.....	18
10.8	Xizmatlar uchun mukofot va Xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot.....	19
10.9	Homiylik faoliyatini qo'llab-quvvatlash	19
10.9.1	Homiyini o'zgartirish	19
10.9.2	Homiyini o'zgartirish so'rovi	19
10.10	Qoidalarga rioya qilishni nazorat qilish	21
10.10.1	Shikoyat berish tartibi.....	21
10.10.2	Shikoyatni ko'rib chiqish	21
10.10.3	Sanktsiyalar	21
10.10.4	Qayta ko'rib chiqish uchun talablar (Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish bilan bog'liq emas)	22
10.10.5	Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish	22
10.10.6	Appelyatsiya berish tartibi	23
10.11	Qo'shimcha huquqiy qoidalar.....	24
10.11.1	Zararni qoplash	24
10.11.2	Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilish	24

10.11.3	Shartnoma qoidalarining avtonomligi.....	24
10.11.4	Amaldagi qonun va yurisdiksiya:	24
10.11.5	Zararni qoplash	24
10.11.6	Mustaqil Hamkorlar o'rtasidagi da'volar	24
10.12	Shaxsiy ma'lumotlar va ma'lumotlar maxfiyligini himoyasi	25
10.13	Ta'riflar.....	26

1 Ishning boshlanishi

1.1 Mustaqil Hamkorlar Yakka Tartibdagi tadbirkorlardir

Mustaqil Hamkorlar - o'zlari uchun ishlaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar, mustaqil kontragentlar bo'lib, ular Herbalife yoki boshqa Mustaqil Hamkorning ishchilari, franshiza oluvchilari, agentlari emas va buning aksini da'vo qila olmaydi yoki nazarda tutolmaydi. Homiy boshqa Mustaqil Hamkorlarni yoki quyi turuvchi Tashkilotini, faqatgina quyi turuvchi Tashkilotiga mansubligi asosida, xodim deb aniqlamasligi kerak.

Agar Homiy va boshqa Mustaqil Hamkor mehnat munosabatlarida bo'lsa, Homiy mehnat qonunchiligining barcha talablariga javob berishi kerak.

Yollanma xodimlarga Mustaqil Hamkor faoliyatini olib borish taqiqlanadi.

Mustaqil Hamkorlar mijozlarga "Mijozlar xizmati" qoidasida tavsiflangan xizmatlarni shaxsan taqdim etishlari shart.

1.2 Qarz olish yoki majburiy sotib olish zaruratining yo'qligi

Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun kreditlarni targ'ib qilish yoki xaridlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

2 Herbalife mahsulotlarini sotish

2.1 Taqiqlangan savdo joylari

Mustaqil Hamkorlarga Herbalife® mahsulotlarini bozorlarda (ochiq va yopiq), dorixonalarda, kiosklarda, stendlarda (vaqtinchalik yoki doimiy), arzon savdo bozorlarida, ko'chma savdo nuqtalarida, tashish konteynerlaridan, restoranlarda, umumiy ovqatlanish muassasalarida yoki boshqa shunga o'xshash joylarda sotish taqiqlanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonasining alohida xonasida sotishga ruxsat beriladi.

Turar-joy binolaridan tijorat maqsadlarida foydalanish taqiqlanadi. Mahsulotlarni sotishga faqat buning uchun maxsus mo'ljallangan binolarda yo'l qo'yiladi.

2.2 Chakana buyurtma shakllari va sotuv hujjatlari

Har bir sotuv jarayonida Mustaqil Hamkorlar har bir mijozga to'liq to'ldirilgan chakana buyurtma Blankini taqdim etishlari shart. Mahsulotni sotish bo'yicha har qanday hujjatlar, shuningdek barcha chakana buyurtma Blanklarining nusxalari 2 (ikki) yil davomida saqlanishi kerak.

Herbalife bitim va sotish shartlarini tasdiqlash uchun mijozlarga mahsulotni sotish to'g'risidagi hujjatlarning nusxalarini talab qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. Hujjatlar Herbalife so'roviga binoan taqdim etilishi kerak.

2.3 Mijozlarga to'lovlarni qaytarish

Mustaqil Hamkorlar mijozlarga mahsulot narxini qaytarish 30 kunlik kafolatini taqdim etishlari shart.

Mijoz tanloviga asosan ikkita variant taqdim etilishi lozim: xarid va yetkazib berish xarajatlarini to'liq qoplash yoki boshqa Herbalife® mahsulotlariga almashtirish.

Mustaqil Hamkorlar Imtiyozli Mijozlarni to'lovlarni qaytarish uchun Kompaniyaga yo'naltirishlari kerak.

2.4 Agressiv savdo

Mustaqil Hamkorlarga mijozlarga, Imtiyozli Mijozlarga va Mustaqil Hamkorlarga xizmat ko'rsatishda aggressiv savdo usullaridan foydalanish taqiqlanadi.

2.5 Uchinchi shaxslar tomonidan tarqatish uchun mahsulotlarni sotish

Mustaqil Hamkorlarga Herbalife® mahsulotlarini Mustaqil Hamkor bo'lmaganlarga qayta sotish maqsadida sotish va boshqa yo'l bilan berish taqiqlanadi.

2.6 Qadoq, yorliq va materiallarni o'zgartirish

Mustaqil Hamkorlarga Herbalife® mahsulotlarining yorliqlari, adabiyotlari, materiallari yoki qadoqlarining ko'rinishini o'zgartirish taqiqlanadi. Mustaqil Hamkorlarga Herbalife® mahsulotlarini qayta qadoqlash yoki donalab sotish uchun yorliqlanmagan mahsulotlarni sotish taqiqlanadi.

2.7 Mahsulot tavsifi va foydalanish bo'yicha tavsiyalar

Herbalife® mahsulotlarini sotishda Mustaqil Hamkorlar xaridorga mahsulot yorlig'ida ko'rsatilgan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalarni tushuntirishlari kerak.

Mustaqil Hamkorlar biror kasallikdan aziyat chekayotgan yoki davolanayotgan mijozlarga ratsioniga o'zgartirish kiritishdan oldin davolovchi shifokor bilan maslahatlashishni tavsiya qilishlari kerak.

Mustaqil Hamkorlar Herbalife® mahsulotlarini sotishdan oldin mijozlarga yorliqda ko'rsatilgan tegishli ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak.

2.8 Identifikatsiya

Herbalife® mahsulotlarini sotish yoki targ'ib qilishda yoki biznes imkoniyatlarini ilgari surishda Mustaqil Hamkorlar o'zlarini Herbalife Mustaqil Hamkorlari deb belgilashlari shart.

3 Reklama

3.1 Bayonotlar

Har qanday bayonot bu - Herbalife® mahsulotlari, Herbalife biznes-imkoniyatlari yoki ularning afzalliklari haqidagi tasdiq, hikoya, rasm yoki video. Mustaqil Hamkorlar quyidagi shartlarga rioya qilgan holda bayonotlar berishlari mumkin:

- ular ishonchli, chalg'itmaydi va yozma ravishda tasdiqlanadi;
- amaldagi barcha Qoidalar va qonunchilikka mos keladi;
- mahsulot yorlig'ida ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos keladi;
- tibbiy emas, sog'lomlashtirish, davolash yoki kasalliklarning oldini olish bilan bog'liq emas;
- kafolatlangan daromad yoki ishga joylashish imkoniyatlarini va'da qilmaydi;
- haddan tashqari yuqori daromad yoki hashamatli turmush tarzini nazarda tutmaydi yoki namoyish etmaydi;
- o'qish uchun qulay shaklda majburiy diskleymerlar bilan birga keladi.

Herbalife, agar u ushbu Qoidalarni, amaldagi qonunchilikni buzsa yoki Herbalife brendi yoki obro'siga zarar yetkazsa, har qanday bayonotni olib tashlashni talab qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.2 Narxlar reklamasi

Mustaqil Hamkorlarga, keng auditoriyaga narxlar to'g'risida ma'lumot berish taqiqlanadi, Herbalife Kompaniyasi platformalarida ruxsat etilgan hollar bundan mustasno.

3.3 Herbalife intellektual mulki

Herbalife Mustaqil Hamkorlarga quyidagi shartlarga rioya qilgan holda mualliflik huquqi bilan himoyalangan Herbalife materiallari va savdo belgilaridan foydalanishga ruxsat beradi:

- ular Herbalife® mahsulotlarini sotish va ulardan foydalanish yoki biznes imkoniyatlarini targ'ib qilish uchun ishlatiladi.
- Materiallar Kompaniya tomonidan tasdiqlangan platformalardan yuklab olinadi.
- matn, rasmlar va savdo belgilari tahrirlanmaydi, kesilmaydi yoki ko'rinishi o'zgartirilmaydi.
- Mustaqil Hamkorlar materiallar Herbalife mulki hisoblanishini ta'kidlaydilar.

- Mustaqil Hamkorlar hech qachon Mark Xyuzning ismini yoki har qanday reklamada unga ko'rinish jihatdan o'xshash tasvirni ishlatmaydilar.
- Mustaqil Hamkorlar har qanday veb-saytning domen nomida, har qanday registrda yoki har qanday tashqi yorliqda nom va savdo belgilaridan foydalanmaydilar.
- Mustaqil Hamkorlar Herbalife iltimosiga binoan mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallar yoki savdo belgilaridan foydalanishni to'xtatadilar.
- Mustaqil Hamkorlar Kompaniya qoidalariga muvofiq biznes yuritadilar.

Agar Herbalife Kompaniyasi Mustaqil Hamkorga tijorat sirini oshkor qilsa, u Mustaqil Hamkor shartnomasini mustaqil ravishda yoki Kompaniya tashabbusi bilan bekor qilgandan keyin ham maxfiylikni saqlashi va oshkor qilmasligi shart.

Herbalife biznesini yuritishda Mustaqil Hamkorlarga boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslarga tegishli audio yoki video, savdo belgilari, Kompaniya nomi, mahsulot nomi yoki grafiklardan ular egasining oldindan ruxsatisiz foydalanish taqiqlanadi.

3.4 Reklamani taqiqlash

Mustaqil Hamkorlarga televidenya, radio yoki boshqa shunga o'xshash manbalarda translyatsiyada ishtirok etish yoki reklama joylashtirish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, Mustaqil Hamkorlarga gazeta, jurnal, varaqalar, ma'lumotnomalar, bannerlar, bilbordlar va boshqa bosma nashrlarda bosma reklama joylashtirish taqiqlanadi.

4 Savdo va Marketing Rejasi asoslari

4.1 Bitta Mustaqil Hamkor Shartnomasi bir kishi uchun

Bir kishi faqat bitta Mustaqil Hamkor Shartnomasi doirasida ishlashi mumkin, Meros qoidalariga tegishli hollar bundan mustasno. Mustaqil Hamkor bir vaqtning o'zida Imtiyozli Mijoz bo'la olmaydi. Turmush qurgan juftliklar va Turmush o'rtoqlar bitta Shartnoma asosida ishlashlari kerak, ikkala Mustaqil Hamkor ham turmush qurgan yoki Supervayzer maqomida bo'lib turib, turmush o'rtoq bo'lishga qaror qilgan hollar bundan mustasno.

4.2 Mahsulotlarni munosib shaklda sotib olish

Supervayzer bo'lmagan Mustaqil Hamkorlar Herbalife® mahsulotlarini faqat to'g'ridan-to'g'ri Herbalife Kompaniyasidan, o'z Homiysidan yoki birinchi yuqori turuvchi To'liq Kvalifikatsiyalangan Supervayzerdan sotib olishlari mumkin.

Mustaqil Hamkorlarga boshqa Mustaqil Hamkorlar yoki Imtiyozli Mijozlar nomidan buyurtma joylashtirish yoki to'lash taqiqlanadi, faqat Herbalifega ushbu shaxslardan yozma ruxsat berish bundan mustasno.

Supervayzerlar mahsulotlarni faqat to'g'ridan-to'g'ri Kompaniyadan sotib olishlari mumkin.

Faqat Herbalifedan to'g'ridan-to'g'ri sotib olingan mahsulotlar Savdo va Marketing Rejasi bo'yicha kvalifikatsiya, mukofotlar va imtiyozlar uchun hisobga olinadi.

4.3 Biznesni rivojlantirishda ishtirok etayotgan shaxslarning harakatlari uchun javobgarlik

Mustaqil Hamkorlar Herbalife biznesida ularga yordam beradigan shaxslarning, shu jumladan turmush o'rtog'i, umr yo'ldoshi yoki Mustaqil Hamkorlarga xizmat ko'rsatadigan uchinchi shaxslarning harakatlari uchun javobgardir.

4.4 Harakatsizlik davri

Yangi ariza topshirmoqchi bo'lgan va boshqa Homiy ostida Shartnoma imzolamoqchi bo'lgan Mustaqil Hamkor, Supervayzer yoki undan past maqom uchun 1 yil, World Team yoki undan yuqori maqomi uchun 2 yil davom etadigan harakatsizlik davriga rioya qilishi kerak, bu davrda unga Mustaqil Hamkorning har qanday faoliyatini amalga oshirish taqiqlanadi.

Ushbu talab har qanday sobiq Ishtirokchiga (Mustaqil Hamkor, uning turmush o'rtog'i, umr yo'ldoshi yoki biznesni rivojlantirishda ishtirok etadigan shaxsga) ham tegishli.

Imtiyozli Mijozlar uchun Harakatsizlik davri 180 kalendar kunni tashkil qiladi.

Boshqa Mustaqil Hamkorning biznesida ishtirok etish yoki boshqa yo'l bilan Harakatsizlik davrini chetlab o'tishga urinishlar taqiqlanadi.

5 Homiylik va yetakchilik

5.1 TAB Team jamoasi ishtirokchilari tomonidan xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot olish uchun ariza

Mustaqil Hamkor TAB Team maqomiga erishganidan so'ng, xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot olish huquqiga ega bo'lish maqsadida, TAB Team jamoasi ishtirokchilari tomonidan xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot olish Arizasini imzolashi kerak.

5.2 Boshqa biznesga aralashmaslik

Mustaqil Hamkorlarga boshqa Mustaqil Hamkorning biznesiga aralashish taqiqlanadi.

5.3 Herbalife bilan assotsiatsiya

Mustaqil Hamkorlar Herbalife har qanday tadbirkorlik faoliyati, tijorat va notijorat tashkilotlari bilan bog'liq yoki har qanday diniy, siyosiy, ijtimoiy qarashlarni qo'llab-quvvatlaydi degan taassurot qoldirmasligi kerak.

5.4 Boshqa biznes-imkoniyatlarini targ'ib qilish

Mustaqil Hamkorlarga Mustaqil Hamkorlar yoki Imtiyozli Mijozlarga boshqa biznes-imkoniyatlarini targ'ib qilish taqiqlanadi.

Mustaqil Hamkorlarga, shuningdek, boshqa to'g'ridan-to'g'ri savdo kompaniyalarining mahsulotlarini Mustaqil Hamkorlarga yoki Imtiyozli Mijozlarga sotish taqiqlanadi.

5.5 Biznesni rivojlantirish vositalarini sotish

Mustaqil Hamkorlarga biznesni rivojlantirish vositalarini boshqa Mustaqil Hamkorlarga sotish orqali foyda olish taqiqlanadi. Herbalife Kompaniya Qoidalarini, Qonunchilikni buzadigan yoki Herbalife obro'si va imidjiga zarar yetkazadigan biznesni rivojlantirish vositasini sotish yoki undan foydalanishni taqiqlash huquqini o'zida saqlab qoladi.

6 To'g'ridan-to'g'ri savdolar

Herbalife biznes-imkoniyatlarining yaxlitligini qo'llab-quvvatlash, Savdo va Marketing Rejasi, mahsulotlarni tarqatish usullari va mumkin bo'lgan zararlardan himoya qilish Herbalife Kompaniyasi va uning biznes modeli uchun juda muhimdir.

Ushbu bo'lim qoidalariga rioya qilmaslik Mustaqil Hamkor Shartnomasining qoidalarini jiddiy ravishda buzadi va Kompaniyaga barcha mavjud qo'llab-quvvatlash va himoya vositalaridan foydalanish, shu jumladan Mustaqil Hamkor Shartnomasini bekor qilish imkoniyatini beradi.

6.1 Savdo va Marketing Rejasini manipulyatsiya qilish

Mustaqil Hamkorlarga Savdo va Marketing Rejasini manipulyatsiya qilish deb ta'riflanishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish, ish usullaridan foydalanish yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi. Mustaqil Hamkorlarga asosiy maqsadi o'zi va boshqa Mustaqil Hamkorlar uchun mukofotlar, e'tiroflar va Savdo va Marketing Rejasi bo'yicha ilgari surilishi maqsadida mahsulot sotib olishni amalga oshirish yoki tashkil etish taqiqlanadi (mahsulotni mijozga sotish yoki shaxsiy foydalanish uchun oqilona miqdorda sotib olish bundan mustasno).

Savdo va Marketing Rejasini Manipulyatsiya qilish belgilari bo'lgan misollarni o'z ichiga olgan, ammo ular bilan cheklanmagan ro'yxat bu [yerda mavjud](#).

Qoidalarga mos kelmaslik va ko'riladigan choralar

Savdo va Marketing Rejasini Manipulyatsiya qilish Mustaqil Hamkor Shartnomasining qoidalarini jiddiy ravishda buzadi va shu sababli Herbalife oldindan yozma ogohlantirishsiz Shartnomani bekor qilishgacha bo'lgan barcha mavjud huquqiy himoya vositalarni qo'llash huquqini o'zida saqlab qoladi.

Mustaqil Hamkor, shuningdek, Herbalife Kompaniyasiga Savdo va Marketing Rejasini Manipulyatsiya qilish natijasida yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgardir.

Boshqa choralar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ishtirok etgan har qanday Mustaqil Hamkorning mukofotlari va kvalifikatsiyasidan mahrum etilishi bo'lishi mumkin. Yuqori darajadagi Mustaqil Hamkorlarga yetkazilgan moliyaviy zararni oldini olish uchun, qoidabuzarliklarni tekshirish davrida Hamkorlik bo'yicha muayyan choralarni, masalan, buyurtma berish huquqini to'xtatib turish chorasini qo'llash kerak bo'lish ehtimoli bor.

6.2 Mijozlar xizmati

Herbalife mahsulotlarini birinchi marta sotib olishgacha Mustaqil Hamkorlar mijoz bilan shaxsan yoki onlayn-rejimda shaxsiy yondashuvni qo'llashlari kerak. Mustaqil Hamkorlar uchun shaxsan muloqot orqali Mijozlarga xizmat ko'rsatish muhimdir.

Mijozning birinchi xaridigacha Mustaqil Hamkorlar [havola orqali mavjud](#) xizmatlarning quyidagi minimal ro'yxatini taqdim etishlari kerak:

Mustaqil Hamkorlar o'z mijozlariga Herbalife mahsulotlaridan foydalanish jarayonida eng yaxshi natijalarga erishishga yordam berishlari kerak.

Ba'zi misollar ro'yxati [quyidagi havolada mavjud](#).

6.3 Yetakchilar tomonidan qo'llab-quvvatlash va Tashkilotni o'rgatish

Homiylar o'zlarining Mustaqil Hamkorlarini o'rgatish uchun javobgardirlar, ammo bunday treninglardan daromad ko'rmasliklari kerak.

Ba'zi misollar ro'yxati [quyidagi havolada mavjud](#).

6.4 Auksion-saytlarida va uchinchi tomon onlayn-savdo maydonchalarida sotishni taqiqlash (birgalikda "Uchinchi tomon saytlari" deb nomlanadi)

Uchinchi tomon saytlaridagi sotuvlar Mustaqil Hamkorlar tomonidan rivojlantirilishi kerak bo'lgan mijozlar bilan shaxsiy munosabatlarni, shuningdek Herbalife o'z mahsulotlari uchun yaratadigan brend, imidj va marketingini susaytiradi. Bu, boshqa narsalar qatori, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Uchinchi tomon saytlari uchinchi tomon sayt operatorining nomi va logotipini namoyish etadi;
- ular ko'pincha tovarlarning sifati yoki iste'mol xususiyatlari to'g'risida noto'g'ri ma'lumot berishadi, bu yolg'on bo'lishi yoki hatto qonun talablarini buzishi mumkin;
- Herbalife mahsulotlarini Herbalife imidjiga mos kelmaydigan tasavvurlar kontekstida taqdim etadi.

Mustaqil Hamkorlarga Herbalife mahsulotlarini o'zlarining mustaqil internet-do'konlari yoki Herbalife tomonidan yaratilgan platformalar orqali onlayn sotishga **ruxsat** beriladi.

Mustaqil Hamkorlarga Herbalife® mahsulotlarini (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, har qanday usulda yoki har qanday vositalar bilan) sotishga taklif qilish, sotish yoki sotishga ko'maklashish, shu jumladan, ommaviy savdolarda qatnashish, belgilangan narxda sotish to'g'risidagi e'lonlarni joylashtirish yoki boshqa yo'l bilan sotib olish va sotish amalga oshiriladigan tijorat saytida va onlayn bozorlarda, uchinchi tomon saytida yoki uchinchi tomon nomi yoki logotipiga ega bo'lgan, boshqacha tarzda brendlangan yoki uchinchi tomon sayti sifatida belgilangan har qanday boshqa saytda sotish **taqiqlanadi**.

Herbalife® mahsulotlarini sotish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish taqiqlanadi.

6.5 Mustaqil Hamkorlarning veb-saytlari va ilovalari

Herbalife® mahsulotlarini sotish yoki taklif qilish uchun Herbalife savdo belgilaridan foydalangan holda o'zlarining veb-saytlari va dasturlarini qo'llab-quvvatlaydigan Mustaqil Hamkorlar:

- Har bir veb-saytga tashrif buyurganingizda paydo bo'ladigan, Herbalife tomonidan taqdim etilgan qalqib chiquvchi oynani o'zgarishsiz aniq ko'rsatishlari;
- Mustaqil Hamkorning ismi, familiyasi va aloqa ma'lumotlarini, shu jumladan manzilini, telefon raqamini va "Herbalife Mustaqil Hamkori" logotipi bilan aniq ko'rsatib berishlari, logotip ko'rinarli joyda (sahifaning yuqori qismida) bo'lishi va saytga tashrif buyuruvchilarning e'tiborini jalb qilishi kerak;
- Veb-sayt yoki ilova bir-biriga o'xshamasligiga va ular Herbalife kompaniyasining rasmiy veb-sayti yoki ilovasi kabi taassurot qoldirmasligiga ishonch hosil qilishlari zarur.

Mustaqil Hamkorlar o'zlarining alohida veb-saytlarida shaxsan ishlashlari kerak. Bitta veb-saytda faqat bitta Mustaqil Hamkor ishlash, buyurtmalarni qayta ishlash yoki boshqa yo'l bilan biznesni rivojlantirish huquqiga ega.

6.6 Kontekstli reklama va qidiruv tizimini optimallashtirish

Mustaqil Hamkorlar qidiruv tizimlarida qidirish Mustaqil Hamkorning veb-sayti va Herbalife kompaniyasining rasmiy veb-saytlari o'rtasida chalkashliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni yaratmasliklari kerak.

[Taqiqlangan so'zlar/iboralar Ro'yxatida ko'rsatilgan so'zlar va iboralar](#) Mustaqil Hamkorning veb-sayti bilan bog'liq qidiruv tizimining har qanday natijalarida ko'rinmasligi kerak.

Pulli qidiruv reklamalaridan foydalanadigan Mustaqil Hamkorlar reklamada **"Herbalife Mustaqil Hamkori"** iborasini joylashtirishlari kerak.

6.7 Taqiqlangan biznes-amaliyotlari

Herbalife® mahsulotlari va/yoki Herbalife biznes imkoniyatlarini taklif qilish, targ'ib qilish yoki gapirish orqali Mustaqil Hamkorlarga amaldagi Qonunchilik doirasida adolatsiz biznes amaliyotiga murojaat qilish, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, noto'g'ri ma'lumot berish yoki agressiv sotish taqiqlanadi.

6.8 Potensial mijozlar va tavsiya bo'yicha kelgan odamlar

Mustaqil Hamkorlar potensial mijozlar ma'lumotlarini sotib ololmaydilar yoki sotolmaydilar yoki tavsiyalar uchun pul to'lay olmaydilar. Biroq, ular o'zlari foydalanishi uchun potensial mijozlar yoki tavsiya etilgan odamlar ro'yxatini mustaqil ravishda tuzishlari yoki ushbu ma'lumotni boshqa Mustaqil Hamkorlarga bepul taqdim etishlari mumkin.

Mustaqil Hamkorlar potensial mijozlarning aloqa ma'lumotlarini quyidagi shartlarga rioya qilmasdan avtomatik ravishda, muntazam ravishda yoki boshqa yo'l bilan quyi turuvchi Mustaqil Hamkorga topshirmasliklari kerak:

- Potensial mijoz xabardor qilinadi va oldindan yoki uning aloqa ma'lumoti berilganda, quyi turuvchi Mustaqil Hamkor u bilan ishlashni boshlashiga rozi bo'ladi.
- Potensial mijozning aloqa ma'lumotlarini olgandan so'ng quyi turuvchi Mustaqil Hamkor sotish, keyingi hamrohlik va mijozlarni qo'llab-quvvatlash uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

7 Sog'lom turmush tarzi klublari va ofislari

7.1 Biznes yuritish uchun joy ijaraga olish yoki sotib olish

Herbalife biznesini yuritish uchun ijara, subijara yoki har qanday joyni sotib olish shartnomasini imzolashdan oldin Mustaqil Hamkor:

- Kamida 90 kun Herbalifening Mustaqil Hamkori bo'lishi.
- To'liq Kvalifikatsiyalangan Supervayzer bo'lishi.
- Herbalife Kompaniyasi tomonidan talab qilinadigan shartlarni bajarishi.
- MyHerbalife.com saytida binoni onlayn ro'yxatdan o'tkazishi kerak.

7.2 Bir nechta Klublarni boshqarish

Mustaqil Hamkorlar klubni yuritish uchun uchta binodan ko'p bo'lmagan faoliyat yuritish yoki uchta ijara shartnomasini imzolash huquqiga ega.

7.3 Klubni yuritish bo'yicha pullik maslahatlarni taqiqlash

Mustaqil Hamkorlarga klubni ochish yoki boshqarish bo'yicha yordam yoki maslahat uchun boshqa Mustaqil Hamkorlardan haq olish taqiqlanadi, bundan tashqari "Yetakchilar tomonidan qo'llab-quvvatlash va Tashkilotni o'rgatish" Qoidasida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

7.4 Klubning Mas'ul Tashkilotchisi

Sog'lom turmush tarzi klubining barcha faoliyatini to'liq boshqaradigan va nazorat qiladigan klub tashkilotchisi sifatida bitta Mustaqil Hamkor tayinlanishi kerak.

Klub Tashkilotchisi Sog'lom turmush tarzi klubining faoliyati uchun uning yo'qligida mas'ul bo'lgan boshqa Mustaqil Hamkorni tayinlashi kerak.

7.5 Klub binolaridan birgalikda foydalanish

Klub tashkilotchisi boshqa Mustaqil Hamkorlardan faqat foyda olish uchun emas, balki klub xarajatlarini qoplash uchun haq olishi mumkin. Klub binosini birgalikda ijaraga olgan barcha Mustaqil Hamkorlar "Biznes yuritish uchun binolarni ijaraga olish yoki sotib olish" Qoidasida ko'rsatilgan barcha talablarga javob berishlari kerak.

7.6 Mahsulotning chakana savdosi

Qadoqlangan, lekin alohida-alohida sotish uchun belgilanmagan mahsulotlarni sotish uchun Mustaqil Hamkorlar mahalliy qonunchilikka muvofiq, sotiladigan mahsulot yorlig'ida ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

Tabletkalarni donalab sotish yoki taklif qilish taqiqlanadi, shuningdek, qayta qadoqlangan mahsulot va mahsulotni sochma holda sotish taqiqlanadi.

7.7 Herbalife mahsulotlarini tayyorlash

Mustaqil Hamkorlar Sog'lom turmush tarzi klublarida taklif qilinadigan mahsulotlarni ruxsat etilgan tayyorlash usullariga muvofiq tayyorlashlari va mijozlarga mahsulot yorlig'ida ko'rsatilgan ma'lumotlarni, shu jumladan mumkin bo'lgan allergenlarni taqdim etishlari kerak. Agar mahsulot qadoqda ko'rsatilgan yo'riqnomaga muvofiq aralashtirilmasa, uning xususiyatlari to'g'risida bayonot berish taqiqlanadi.

Sog'lom turmush tarzi klubida tortiq qilish, sotish yoki targ'ib qilish uchun faqat Herbalife® mahsulotlariga ruxsat beriladi. Meva, sabzavot va ziravorlar kabi qo'shimchalarga ruxsat beriladi.

7.8 Yetkazib berish

Mustaqil Hamkorlarga quyidagilar taqiqlanadi:

- Express 24, Uzum Tezkor, Uber Eats, Grubhub va shunga o'xshash uchinchi tomon yetkazib berish xizmatlaridan foydalanish;
- mijozlarga avtomobillar uchun restoran formatida yoki xizmat ko'rsatish oynasi orqali xizmat ko'rsatish.

7.9 Foyda olish uchun Klublarni sotishni taqiqlash

Ijarani o'tkazish: foyda olish uchun Klublarni sotish taqiqlanadi. Biroq ijara haqini uskunalar va ta'mirlash xarajatlarini qoplash maqsadidaboshqa saxs nomiga o'tkazishga ruxsat beriladi. Mustaqil Hamkorlar ushbu xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni so'ralganda taqdim etishlari shart.

Ijara shartnomasini tuzishdan oldin, Mustaqil Hamkor birinchi navbatda "Biznesni yuritish uchun binolarni ijaraga olish yoki sotib olish" Qoidasida ko'rsatilgan barcha talablarni bajarishi kerak.

7.10 Noturar joydagi Klub peshtaxtasi va nomi

Klubni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Mustaqil Hamkorlar Herbalife Kompaniyasiga taklif qilingan Klub peshtaxta va nomi to'g'risida ma'lumot berishlari kerak. Tekshirish uchun hujjatlar ijara shartnomasi, subijara yoki klub uchun bino sotib olishdan oldin taqdim etilishi kerak.

Foydalaniladigan peshtaxtada Mustaqil Hamkor uchun quyidagilar mumkin emas:

- Boshqa Klub bilan bir xil yoki o'xshash nom yoki peshtaxtadan foydalanish;
- Herbalife® mahsulotlari sotuvda mavjudligini ko'rsatish;
- Muayyan guruhni belgilash uchun nom yoki peshtaxtadan foydalanish: bu franshiza yoki Sog'lom turmush tarzi klublari tarmog'ining bir qismi kabi taassurot qoldiradigan geografik joylashuv, Mustaqil Hamkor Tashkiloti, Ovqatlanish klublari, Sog'lom turmush tarzi klublari va boshqalar;
- Herbalife intellektual mulki, mahsulot nomlari yoki brendlaridan foydalanish.

Yuqoridagi cheklovlar tashqi tomondan ko'rinadigan va franshiza sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi.

7.11 Turar-joy bo'lmagan binoda Klubning tashqi bezagi

Deraza va eshiklarni qoplash majburiy emas, ammo Klubning har qanday tashqi bezagida quyidagilarga ruxsat berilmaydi:

- Herbalife brendini joylashtirish (nomi, logotiplari va boshqalar);
- Herbalife® mahsulotlari sotuvda mavjudligini ko'rsatish;
- "Oldin va keyin" fotosuratlarini yoki taqqoslash tasvirlangan boshqa fotosuratlarni joylashtirish;
- Boshqa Klub bilan bir xil yoki juda o'xshash tashqi ko'rinishga ega bo'lish, shu jumladan deraza va eshiklarni qoplash.

Klubda Herbalife® mahsulotlari, Herbalife mahsulotlari to'g'risidagi materiallar, reklama materiallari, agar ular klub tashqarisida ko'rinmasa, namoyish etilishi mumkin.

8 Xalqaro biznes

8.1 Biznes uchun ochiq bo'lmagan mamlakatlar va hududlardagi faoliyat

Mustaqil Hamkorlarga Herbalife biznesi uchun hali rasman ochiq bo'lmagan mamlakatda Herbalife biznesini yuritish taqiqlanadi.

8.2 Mahsulotlarni eksport qilishni taqiqlash

Mustaqil Hamkorlarga mahsulotlarni bir mamlakatdan boshqasiga yuborish, sotish, eksport qilish yoki tarqatish taqiqlanadi.

Amaldagi Herbalife qonunchiligi va siyosatiga ko'ra, boshqa mamlakatlarga sayohat qilgan Mustaqil Hamkorlar shaxsiy iste'mol uchun oyiga Umumiy Hajmdan 1500 ochkodan oshmaydigan mahsulotlarni tashishlari mumkin.

8.3 Xitoyda biznes yuritish

Faqat Xitoy fuqarolari Xitoyda biznes yuritish huquqiga ega. Mustaqil Hamkorlarga hatto shaxsiy foydalanish uchun ham Herbalife® mahsulotini Xitoyga yuborish yoki olib kelish taqiqlanadi.

8.4 Mamlakatlar, mintaqalar va alohida shaxslar uchun taqiqlar

Mustaqil Hamkor yopiq mamlakatlar rezidenti bo'lishi va Herbalife biznesini yuritishi mumkin emas.

Mustaqil Hamkor biror bir shaxs yoki tashkilot bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita Herbalife biznesi bilan bog'liq faoliyatini quyidagilarga asos bo'lsa amalga oshira olmaydi:

- (i) yopiq mamlakat yoki mintaqada doimiy yashashovchi yoki biznes yurituvchi;
- (ii) Kompaniya mahsulotlarini yopiq mamlakat yoki mintaqada yashovchi shaxslarga qayta sotishda ishtirok etadi;

- (iii) yopiq mamlakat yoki mintaqada ro'yxatdan o'tgan yoki yashaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs hisoblanadi yoki ularning manfaatlarini ifodalaydi;
- (iv) AQSh moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi yoki ro'yxatda ko'rsatilgan fuqarolarga tegishli bo'lgan har qanday jismoniy shaxs, yuridik shaxs yoki tashkilot tomonidan boshqariladigan maxsus belgilangan fuqarolar ro'yxatiga kiritilgan.

9 Umumiy Xulq-Atvor Qoidalari

9.1 Amaldagi Qonunchilik va qoidalariga rioya qilish

Mustaqil Hamkorlar amaldagi qonunchilikka, shu jumladan qoidalar, ko'rsatmalar, farmonlar va litsenziyalash talablariga va ular faoliyat yuritadigan har bir mamlakatning Herbalife Qoidalariga rioya qilishlari kerak. Mustaqil Hamkorlar boshqa Mustaqil Hamkorlarni ularni buzishga undashlari kerak emas.

Herbalife Qoidalari va qonun hujjatlari o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lsa, Qonunchilik ustunlik qiladi.

Mustaqil Hamkorlar Herbalife biznesini yuritishda uchinchi saxslar xizmatlaridan foydalansalar, uchinchi shaxslarning foydalanuvchi kelishuvlari shartlariga rioya qilishlari shart.

9.2 Herbalife kompaniyasiga ishonchli va tegishli ma'lumotlarni taqdim etish

Herbalife Kompaniyasiga taqdim etilgan barcha ma'lumotlar ishonchli, to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishi kerak. Bunga Ariza, shakllar, blanklar, to'lov kvitansiyalari, biznesni ro'yxatdan o'tkazish va/yoki soliq organlarida ro'yxatdan o'tishni tasdiqlovchi hujjatlar, aloqa ma'lumotlari va buyurtmalar kiradi.

9.3 Herbalife obro'si va imidjini qo'llab-quvvatlash

Mustaqil Hamkorlar Herbalife obro'siga, imidjiga, mahsulotlariga, intellektual mulkiga yoki ishbilarmonlik obro'siga zarar yetkazmasligi kerak.

9.4 Bosim o'tqazish, diskriminatsiya va noo'rin xatti-harakatlarga munosabat

Herbalife diskriminatsiya, bosim o'tqazish va noo'rin xatti-harakatlarni taqiqlaydi.

9.5 Herbalife tomonidan tekshiruvlarda hamkorlik

Mustaqil Hamkorlar Kompaniya tomonidan tekshiruvlar o'tkazishda Herbalife bilan hamkorlik qilishlari kerak.

9.6 Raqobat to'siqlarini taqiqlash

Mustaqil biznes egalari sifatida Mustaqil Hamkorlar boshqa Mustaqil Hamkorlar bilan quyidagilar to'g'risida kelishib olmasliklari kerak:

- Herbalife mahsulotlarini sotish narxi haqida
- mahsulot sotish hududini taqsimlash to'g'risida
- tarqatish usullari haqida
- mijozlarni, Imtiyozli Mijozlarni yoki Mustaqil Hamkorlarni taqsimlash to'g'risida

9.7 O'yin faolliklarini targ'ib qilish

Herbalife biznesini yuritishda Mustaqil Hamkorlarga lotereyalar, shu jumladan yutqazilmaydigan lotereyalar o'tkazish taqiqlanadi. Boshqa o'yin faolliklarini targ'ib qilish, masalan, Go'zal qomat marafonlari, Tanani o'zgartirish tanlovlari, Tashkilotda sotishni rag'batlantiruvchi promoushenlar, marafonlar va bepul yutuqli o'yinlar, agar ular [Musobaqalarni tashkil etish va o'yin faoliyatini targ'ib qilish bo'yicha ko'rsatmalarga](#) muvofiq bo'lsa, qabul qilinadi.

10 Ma'muriy Qoidalar

10.1 Shartnomada nazarda tutilgan huquqlar

10.1.1 Shartnoma tuzish uchun talab etiladigan minimal yosh

Herbalife Mustaqil Hamkori bo'lish yoki boshqa Mustaqil Hamkorning biznesida ishtirok etish uchun nomzod kamida 18 yoshda bo'lishi* kerak**.

** O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasida tahsil olayotgan 18 yoshdan katta bo'lgan shaxs, faqat shaxsiy iste'mol uchun mahsulot sotib olish uchun Mustaqil Hamkorlik arizasini berishi mumkin. Agar shaxs ariza imzolanish davomida bunday muassasalarning talabasi bo'lsa, Mustaqil Hamkor amaldagi qonunlar va qoidalar talab qilgan darajada, Herbalife biznesini darhol to'xtatishi, shuningdek mahsulotni faqat shaxsiy iste'mol uchun sotib olishi kerak.*

*** Yoshga bog'liq talablar mamlakatga qarab farq qilishi mumkin. Boshqa mamlakatlar uchun yoshga oid talablarni bilish uchun iltimos, ma'lumot bilan ta'minlash Bo'limiga murojaat qiling.*

10.1.2 Turmush o'rtog'i yoki umr yo'ldoshini tan olish

Mustaqil Hamkor Herbalife biznesda yordam berish va mukofot olinish maqsadida Mustaqil Hamkorlik shartnomasiga turmush o'rtog'i/rafiqasi yoki umr yo'ldoshining ismini qo'shishni so'rashi mumkin*.

Mustaqil Hamkor o'z maqomini hujjatlarda saqlab qoladi. Biroq, Turmush o'rtog'i/rafiqasi yoki Umr yo'ldoshi bilan ajrashish mulkka ega bo'lish huquqiga yoki Hamkorlik bilan bog'liq boshqa huquqlarga ta'sir qilishi mumkin**.

** Masalan, Herbalife tadbirlarida qatnashish hamda Marketing va Savdo Rejasidagi yangi yutuqlar uchun tan olinishga imkon beradi.*

*** Agar Turmush o'rtog'i (rafiqasi)/ Umr yo'ldoshi bilan ajrashgan bo'lsa, shartnomada Turmush o'rtog'i yoki Umr yo'ldoshining ismi bor yoki yo'qligi sud qaroriga ta'sir qilishi mumkin.*

10.2 Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berish

10.2.1 Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini boshqa shaxsgaberish, sotish yoki qayta topshirish

Herbalife kompaniyasining oldindan, kompanyaning o'z ixtiyori bilan taqdim etilgan yozma roziligisiz Hamkorlik faoliyatida ishtirok etish huquqi yoki ulushini boshqa shaxsga berish, sotish yoki qayta topshirish taqiqlanadi.

Mustaqil Hamkor hech bir shaxsga Qoidalarni yoki Qonunlarni chetlab o'tish uchun Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini bera olmaydi. Agar Herbalifega sobiq Mustaqil Hamkor (Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni boshqa shaxsga beruvchi shaxs) va / yoki turmush o'rtog'i (rafiqasi) yoki umr yo'ldoshi huquqni topshirishga rozilik berganidan so'ng, hamkorlik faoliyatini Qoidalarga zid tarzda amalga oshirayotganligi ma'lum bo'lsa, Herbalife kompaniyasi berilgan Hamkorlikka nisbatan sanksiyalarni qo'llash huquqiga ega.

10.2.2 Herbalife Mustaqil Hamkori bo'lmagan shaxsga hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini sotish, berish yoki qayta topshirish mumkinligi.

Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi faqat Herbalife Mustaqil Hamkori bo'lmagan shaxsga sotish, berish yoki qayta topshirish mumkin, **Meroslik Qoidasida** ko'rsatilgan holatlar bundan istesno. Agar taklif etilgan Mustaqil Hamkor (Huquqiy voris) Harakatsizlik davriga oid talablarni bajarmagan bo'lsa (**"Harakatsizlik davri"** Qoidasiga o'tish) Herbalife kompaniyasi Shartnoma bo'yicha huquqlarni o'tkazish masalasini ko'rib chiqmaydi.

10.2.3 Maqom va imtiyozlar

Mustaqil Hamkorning yutuqlari bu uning shaxsiy yutuqlari, shuning uchun Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini boshqa shaxsga sotish, berish yoki qayta topshirishda Mustaqil Hamkor olgan maqom va imtiyozlar Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi bilan birga o'tkazib berilmaydi. Shartnoma bo'yicha huquqlar va majburiyatlar topshirilgan shaxsdan unga huquqlarni berish yoki qayta tayinlashdan keyin maqom va imtiyozlarni olish uchun barcha kvalifikatsiya talablarini bajarish talab qilinishi mumkin.

Ushbu talablar, xususan, Supervayzor, TAB Team jamoasi, Herbalife ta'tillariga kvalifikatsiya yoki ma'lum bir Mustaqil Hamkorning boshqa huquqlari uchun malakalarni o'z ichiga oladi.

10.2.4 Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini bergandan keyin javobgarlik


Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi berilganidan keyin:

- Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar berilgan shaxs, Herbalife kompaniyasida Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq Qoidalarning har qanday buzilishi uchun va Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni beruvchi shaxs tomonidan sodir etilgan nomuvofiqliklar uchun javobgar bo'ladi
- Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni bergan shaxs va/yoki uning turmush o'rtog'i (rafiqasi) yoki qoidalarni buzgan turmush o'rtog'i Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni topshirish kuchga kirgan sanadan boshlab 6 oy mobaynida Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxs (huquqiy voris) tomonidan sodir etilgan qoidabuzarlik deb hisoblanadi.

10.3 Turmush o'rtoqlarning yoki umr yo'ldoshlarning ajrashishi

10.3.1 Mustaqil Hamkorning yangi Shartnomasini rasmiylashtirish

Agar Mustaqil Hamkorning Turmush o'rtog'i yoki Umr Yo'ldoshi ajralish jarayonida yoki ajralishdan so'ng Herbalife biznesini davom ettirmoqchi bo'lsa, Mustaqil Hamkor va Turmush o'rtog'i /Umr yo'ldoshining har biri dastlabki Homiy ostida yangi yakka Mustaqil Hamkor maqomini rasmiylashtirishi kerak. Herbalife Mustaqil Hamkorning dastlabki shartnomasi bo'yicha mahsulot sotib olish bilan bog'liq imtiyozlarni bekor qiladi va Mustaqil Hamkorning dastlabki shartnomasiga binoan va "Birlashish" tamoyili bo'yicha, dastlabki shartnomadagi faoliyatni taqsimlaydi (Er-xotinning ajrashishi yoki Umr yo'ldoshi bilan munosabatlarni tugatish va Herbalife Savdo va Marketing rejasiga o'ting). Har bir Mustaqil Hamkor o'z ID raqamini o'z biznesida ishlatishi kerak.



Mustaqil Hamkorning dastlabki shartnomasi va unga tegishli quyi tashkilot Mustaqil Hamkor va uning sobiq Turmush o'rtog'i / Umr yo'ldoshi o'rtasida baham ko'rilmaydi. Masalan, ularning har biri 50% egalik huquqini olib, Mustaqil Hamkor biznesini «bo'lib» ololmaydilar.

Herbalife kompaniyasi yangi Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

Turmush o'rtoqlarning ajralishi paytida

- Mustaqil Hamkor va uning turmush o'rtog'i (rafiqasi) uchun dastlabki homiy ostida yangi to'ldirilgan va imzolangan arizalar
- Guvohlar tomonidan imzolangan va tasdiqlangan ajralish arizasi
- Ajralish to'g'risidagi guvochnomaning nusxasi yoki ajralish to'g'risidagi yakuniy sud qarori
- Mustaqil Hamkor va uning turmush o'rtog'i (rafiqasi) uchun yangi Mustaqil Hamkor shartnomasining identifikatsiya raqami ko'rsatilgan TAB Team jamoasi ishtirokchilari tomonidan xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot olish uchun (faqat TAB Team jamoasi vakillari uchun) yangi imzolangan va to'ldirilgan arizalar.

Umr yo'ldoshi bilan ajralishganda

- Mustaqil Hamkor va uning Umr yo'ldoshi uchun dastlabki homiy ostida yangi to'ldirilgan va imzolangan Arizalar
- Guvohlar tomonidan imzolangan va tasdiqlangan Umr yo'ldoshi va ikkala tomonning haqiqiy nikoh munosabatlarining bekor qilinganligi haqidagi shakl. (Agar imzolangan va guvohlar tomonidan tasdiqlangan Umr yo'ldoshdan ajralish shakli ikkala tarafdan olinmasa, ikki (2) nafar guvoh tomonidan tasdiqlangan moddiy munosabatlarni to'xtatish shakli talab qilinadi).
- Mustaqil Hamkor va uning turmush o'rtog'i (rafiqasi) uchun yangi Mustaqil Hamkor shartnomasining identifikatsiya raqami ko'rsatilgan TAB Team jamoasi ishtirokchilari tomonidan xizmatlar uchun

Qo'shimcha Mukofot olish uchun (faqat TAB Team jamoasi vakillari uchun) yangi imzolangan va to'ldirilgan arizalar.

Agar Mustaqil Hamkor qaytadan turmush qursa yoki yangi Umr yo'ldoshini ko'rsatsa, u holda biznesni rivojlantirishga yordam berish va tan olinishi uchun yangi Mustaqil Hamkor shartnomasiga yangi Turmush o'rtog'i yoki Umr yo'ldoshi qo'shilishi mumkin.




Bir qancha ajralishlar

Er-xotin yoki Umr yo'ldoshlar ajralgan taqdirda, Herbalife kompaniyasi faqat bir ajralgan Mustaqil Hamkor biznesini qabul qiladi va dastlabki biznes bilan bo'g'laydi. Bir nechta ajralishlar yuz berganda, ajrashgan Turmush o'rtog'i / ajrashgan Umr yo'ldoshi Mustaqil Hamkorning yangi shartnomasini imzolashi mumkin, ammo u dastlabki Hamkorlik faoliyati bilan birlashtirilmaydi.

Masalan, agar Aziz va Laylo ajralishsa, Laylo dastlabki homiysi ostida yangi Mustaqil Hamkorlik shartnomasini ("D") tuzishi mumkin, ammo Aziz ("C") Mustaqil Hamkor dastlabki Shartnomasi bilan bog'liq bo'lmaydi.



Layloning Savdo va Marketing rejasidagi statusi ("D") Azizning shaxsiy hamkorlik ("C") statusi bilan bir xil bo'ladi. Masalan, agar shartnomaga ("C") GET jamoasi maqomi berilsa, Laylo ("D") yangi Shartnomasiga GET jamoasi maqomi beriladi.



10.3.2 Mustaqil Hamkorning dastlabki shartnomasiga o'zgartirish kiritish talabi

Herbalife kompaniyasi Mustaqil Hamkorning dastlabki shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish uchun talabnomalarniqabul qiladi. Barcha talabnomalar ikkala tomondan imzolanishi kerak, Herbalife ajralish to'g'risidagi sudning kuchga kirgan qarorining tasdiqlangan nusxasini olgan holati bundan mustasno.

Turmush o'rtog'ining yoki Umr yo'ldoshining ismini shartnomadan olib tashlash: Herbalife Turmush o'rtog'ining yoki Umr Yuldoshining nomini Shartnomadan olib tashlash uchun, Turmush O'rtog' nomini yoki Umr Yuldosh nomini olib tashlash Shaklini to'ldirilgan nusxasini qabul qiladi.

To'lovlar: Herbalife tegishli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun To'lovlarni amalga oshirish Talabnomasini to'ldirilgan nusxasini qabul qiladi. Qabul qilinadigan Talabnomalar har ikki tomondan imzolanishi va notarial tasdiqlanishi kerak. Mustaqil Hamkorning dastlabki Shartnomasi bo'yicha to'lov hisobotlari (Statement lar) MyHerbalife.com saytida Herbalife Mustaqil Hamkori dastlabki Shartnomasi ID –raqami ostida kirilganda mavjud bo'ladi

Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini boshqa shaxsga o'tkazish: Herbalife, Mustaqil Hamkori bo'lmagan shaxsga, shuningdek, sobiq Turmush o'rtog'iga yoki Umr yo'ldoshiga Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini berish uchun ajralish protsedurasining to'ldirilgan Shaklini yoki Turmush o'rtog'i bilan joriy nikoh munosabatlarini bekor qilish Shaklini olishi kerak.

Bir nechta ajralishlar yoki ayrilishlar bo'lsa, ajrashgan Turmush o'rtog'/ayrilgan Umr yuldosh yangi Mustaqil Hamkor Shartnomasini imzolash imkoniyatiga ega bo'ladi va u Dastlabki Hamkorlik faoliyati bilan birlashtiriladi.

Agar Mustaqil Hamkor Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini topshirsa va Individual Hamkorlik faoliyatini boshlashga qaror qilsa, u holda:

- Individual Hamkorlik faoliyati dastlabki faoliyatdan butunlay mustaqil bo'ladi.
- [Savdo va Marketing Rejasining](#) yangi darajalariga o'tish, Xizmatlar uchun Mukofotlar miqdori va boshqa Mukofotlar faqat yangi hamkorlik faoliyatini amalga oshirish davrida erishilgan natijalarga bog'liq bo'ladi.

Herbalife kompaniyasi Mustaqil Hamkorning yangi Shartnomasini qabul qilishi uchun quyidagi shartlar rioya qilinishi kerak:

- Mustaqil Hamkor o'z talabnomasini Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini Supervayzer yoki undan quyi maqomda berganidan keyin bir yil ichida va World Team va undan yuqori maqomda Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini berganidan keyin ikki yil ichida yoki undan keyin berishi kerak.
- Dastlabki Hamkorlik va Individual Hamkorlik faoliyati Homiysi aynan o'sha shaxs bo'lishi kerak.
- Yangi Hamkorlik maqomi Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berish paytidagi Dastlabki Hamkorlik maqomiga teng bo'ladi.

10.3.3 Boshqa homiy ostida Hamkorlik faoliyatini amalga oshirish / Mustaqil Hamkorning boshqa biznesida ishtirok etishi

Boshqa Homiy ostida Mustaqil Hamkor Shartnomasini imzolash uchun Mustaqil Hamkor yoki Turmush o'rtog'i (rafiqasi) yoki Umr yo'ldoshi Herbalife 'ga quyidagi hujjatlarni topshirishlari kerak.*

Turmush o'rtoqlarning ajralishida

- Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun imzolangan yangi ariza
- Guvohlar tomonidan imzolangan va tasdiqlangan ajralish arizasi
- Ajrashish to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi, mulk masalalarini hal qilish to'g'risidagi bitim nusxasi yoki mulkning birgalikda sotib olingan deb hisoblanmaydigan aniq muddatni ko'rsatadigan sudning qarori

Umr yo'ldoshlarning ayrilganida

- Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun imzolangan yangi ariza.
- Guvohlar tomonidan imzolangan va tasdiqlangan umr yo'ldoshi va ikkala tomonning haqiqiy nikoh munosabatlarining bekor qilinganligi haqidagi shakl. (Agar imzolangan va guvohlar tomonidan tasdiqlangan Umr yo'ldoshdan ajralish shakli ikkala tarafdin olinmasa, ikki (2) nafar guvoh tomonidan tasdiqlangan moddiy munosabatlarni to'xtatish shakli talab qilinadi).

Bundan tashqari, Mustaqil Hamkor yoki Turmush o'rtog'i (rafiqasi) yoki Umr yo'ldoshi Harakatsizlik davriga bo'lishi kerak. Harakatsizlik davri "**Harakatsizlik Davri**" Qoidasiga muvofiq belgilanadi yoki qaysi biri keyin sodir bo'lishiga qarab, sud hujjatining berilgan sanasiga muvofiq belgilanadi.

Eslatma: boshqa Homiy ostida Mustaqil Hamkor shartnomasini imzolash uchun siz yangi Ariza topshirishingiz kerak, bunda Dastlabki Hamkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan 25% chegirma mahsulotlarni sotib olish uchun beriladi

* *Shakllar va arizalar namunalarini Ma'lumot ta'minoti bo'limiga murojaat qilish orqali olish mumkin.*

10.3.4 Turmush o'rtoqlar yoki umr yo'ldoshlarning ajrashishi va Herbalife Savdo va Marketing rejasi

Umumiy hajm: Har bir Individual Hamkorlik faoliyati hajmi Dastlabki Hamkorlik faoliyati hajmi bilan umumlashtiriladi ("Birlashma"). U xizmatlar uchun Mukofot olish, kvalifikatsiya, qayta kvalifikatsiyalanish va/yoki Qo'shimcha xizmatlar uchun Mukofot olish huquqini belgilaydi.

Herbalife Dastlabki Hamkorlik faoliyati bo'yicha Xizmatlar uchun Mukofot foizini aniqlash maqsadida Dastlabki Hamkorlik faoliyatining Umumiy Hajmidagi ochkolarni va har bir Individual Hamkorlik faoliyatining Umumiy Hajmidagi ochkolarni umumlashtiradi.


Dastlabki hamkorlik faoliyati bo'yicha Xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot foizi Mustaqil Hamkorning shaxsiy Shartnomalaridan birining eng yuqori ulushi bilan belgilanadi.

Misol:

Hajm Ballari

B va C uchun Hajm quyidagi usulda hisoblanadi:


B + A va C + A



Xizmatlar uchun Mukofot ballari

Xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofotlar ulushini aniqlash uchun Xizmatlar uchun Mukofot ballari quyidagicha umumlashtiriladi:

B + A и C + A



Talablar: Mustaqil Hamkorning har bir shaxsiy biznesi Xizmatlar uchun Mukofot olish uchun zarur bo'lgan barcha talablarga javob berishi kerak.

Mustaqil Hamkorning har bir biznesi, quyi tashkilot Supervayzor maqomiga kvalifikatsiya qilgan taqdirda, uning Individual Hamkorlik faoliyati talablariga muvofiq hajmga tegishli talablarni bajarishi kerak. Quyi Mustaqil Hamkorlarning malakasi uchun zarur bo'lgan tegishli Hajm talablarini bajarish uchun Mustaqil Hamkorning dastlabki maqomiga muvofiq mahsulot sotib olish imkoniyati vaqtinchalik taqdim etiladi.

Mukofot va xizmatlarni e'tirof etish dasturi: Mustaqil Hamkorlarningning yutuqlarini tan olish [Savdo va Marketing Rejasining](#) keyingi bosqichiga o'tishda har bir Mustaqil Hamkorning shaxsiy yutuqlariga muvofiq amalga oshiriladi. Dastlabki hamkorlik faoliyati bo'yicha mukofotlar taqdim etilmaydilaras. Agar Dastlabki va Individual Hamkorlik President's Team darajasiga erishilsa, bunda ushbu President's Team jamoasining yuqori lavozimli vakiliga Presidents' Team Plus (bir olmos) darajasi mukofoti beriladi, bu esa TAB Team jamoasi

vakillarining mukofotlash dasturi va yutuqlarini tan olish siyosatiga zid emas. Agar Mustaqil Hamkorning Individual Shartnomalaridan biri President's Team Plus (bir olmos) darajasiga erishilsa, unda mukofot faqatgina ushbu Individual Hamkorlik faoliyatiga beriladi.

Tadbirlar: Tadbirlarda ishtirok etish qoidalari har bir tadbir uchun individualdir va farq qilishi mumkin. Iltimos, turar joy, chiptalar, transport va boshqa tadbirlar haqida ma'lumot olish uchun tadbirlar haqidagi axborot xabarlariga murojaat qiling.

10.4 Meros*

Agar Mustaqil Hamkor vafot etsa, uning Shartnomasi Herbalife kompaniyasining tegishli qoidalariga va qonunchilikka rioya qilgan holda, shuningdek, Herbalife kompaniyasining roziligi bilan merosxo'rga, berilishi mumkin, ammo muxim sababsiz rad qilish mumkin emas**.

Amaldagi Mustaqil Hamkor uchtagacha bo'lgan - o'zining va boshqa ikki meros qolgan- biznesni boshqarishi mumkin. Meros qilib olingan Hamkorlik biznesi to'g'ridan-to'g'ri shaxsga o'tkazilishi mumkin, yoki TAB Team maqomiga ega bo'lgan hollarda, egasi merosxo'r**** bo'lgan korporatsiyaga*** o'tkazilishi mumkin.

Harakatsizlik davri ("Harakatsizlik davri" qoidasiga muvofiq) meros qilib olingan Hamkorlik faoliyati uchun qo'llanilmaydi

Merosxo'r Herbalife tomonidan so'ralgan barcha hujjatlarni o'z xohishiga ko'ra topshirishi shart.

Vafot etgan Mustaqil Hamkorning biznesini to'xtatish bo'yicha so'rovlar to'g'ridan-to'g'ri axborot ta'minoti Bo'limiga yuborilishi kerak.

* *Mulk masalalari va meros masalalarini rejalashtirish uchun **Biznesni Davom Ettirish dasturi** mavjud. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Axborot ta'minoti bo'limiga murojaat qiling yoki MyHerbalife.com saytida nashr etilgan "Herbalife Mustaqil Hamkor faoliyati - Kelajak uchun rejalar" hujjati bilan tanishib chiqing.*

** *O'lim munosabati bilan shartnomani o'tkazish Deklaratsiyasi shaklining namunalari Axborot ta'minoti Bo'limiga murojaat qilish orqali olish mumkin.*

*** *Agar merosxo'rning yashash mamlakatining qonunchiliga muvofiq bo'lsa.*

**** *Mustaqil Hamkorning meros qilib olingan biznesi Herbalife kompaniyasining Savdo va Marketing rejasiga muvofiq faoliyatni amalga oshirish, Sotuv hajmini va kompensatsiya shartlarini amalga oshirishga qaratilgan alohida tashkilot sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa o'z navbatida Mustaqil Hamkor Herbalife kompaniyasining biznes faoliyatini amalga oshirishdan tashqari, merosxo'rning Umumiy Sotuv hajmi va Mustaqil Hamkorning meros qilib olingan biznesining Umumiy Sotuv hajmini birlashtiradi. Merosxo'r Mustaqil Hamkorning barcha biznesi doirasidagi badallar va qarzlar, shu jumladan xizmat uchun Yillik badal va Bizworks badalini (agar mavjud bo'lsa) to'lash uchun javobgardir.*

10.5 Hamkorlik faoliyatini tugatish

Mustaqil Hamkor MyHerbalife.com saytidagi onlayn xizmat ko'rsatish markazi orqali yoki imzolangan arizani Herbalife kompaniyasiga yuborish orqali Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish to'g'risida ariza berish orqali Herbalife-ning mustaqil Hamkori sifatida o'z faoliyatini to'xtatishga haqlidir. Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi kompaniya ushbu bayonotni qabul qilganidan va tasdiqlaganidan keyin bekor qilinadi

10.6 Mahsulotlarni iste'molchilarga sotish

Herbalife- bu Herbalifemahsulotlarini ishlatish bo'yicha tushuntirishlar va tavsiyalar bilan Herbalife mahsulotlarini mijozlarga shaxsan sotadigan mustaqil kontragentlar (Mustaqil Hamkorlar) to'g'ridan-to'g'ri savdo kompaniyasi.

10.7 Biznesni ro'yxatdan o'tkazish va soliqlar

Har bir mamlakatning qoida va talablari bir-biridan farqlanadi va tez-tez o'zgarib turadi. Bular quyidagilarga tegishlidir:

- biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni;
- QQS-qo'shimcha qiymat solig'i (ma'lumotlar taqdim etish, yig'ish, hisobga olish va hisobot);
- boshqa soliqlar.

Mustaqil Hamkorlar biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya olish qoidalariga, shuningdek, Herbalife biznesini yuritishda oflayn yoki onlayn savdo bo'lishidan qat'i nazar soliq majburiyatlari va hisobot talablariga rioya qilishlari shart.

Herbalife so'rovi bo'yicha Mustaqil Hamkorlar o'z biznesingizni ro'yxatdan o'tkazish va/yoki soliqni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Bundan tashqari, Mustaqil Hamkorlar mas'uliyatli bo'lib, avval taqdim etilgan ma'lumotlardagi har qanday o'zgarishni kechiktirmay bildirishlari lozim.

10.8 Xizmatlar uchun mukofot va Xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot

Herbalife tomonidan taqdim etilgan Xizmatlar uchun oylik mukofot, Xizmatlar uchun Qo'shimcha mukofot va boshqa mukofotlarga ega bo'lish uchun Mustaqil Hamkorlar savdo-sotiq va Savdo ballarari bo'yicha Savdo va Marketing Rejasida va boshqa adabiyot va rekalama materiallarida to'laqonli ko'rsatilgan talablarga javob berishlari kerak.

10.9 Homiylik faoliyatini qo'llab-quvvatlash

Homiy va Mustaqil Hamkor munosabatlari [Savdo va Marketing Rejasining](#) asosidir. Ushbu qoidalar ikkala tomonni himoya qiladi, shu jumladan homiylik huquqlarini kafolatlaydi. Mustaqil Hamkorlar, Homiy sifatida quyi tashkilotni qo'llab-quvvatlash uchun, quyi qator Tashkilotning ilm olishi uchun ko'p vaqt, kuch, sarflaydi. Homiylikdagi o'zgarishlar Herbalife kompaniyasining biznesi yaxlitligiga zarar etkazadi va rag'batlantirilmaydi. Homiylikni o'zgartirish faqat kamdan-kam holatlarda va har doim Herbalife -ning ixtiyorida bo'ladi.

10.9.1 Homiyini o'zgartirish

Homiyini o'zgartirmoqchi bo'lgan Mustaqil Hamkor "Homiyini o'zgartirish to'g'risida so'rov shakli"* amaldagi homiy tomonidan to'ldirilgan "Homiyini almashtirishga rozilik shakli" va da'vo qilingan Homiyning rozilik shaklini to'ldirishi va topshirishi kerak. Barcha hujjatlar ikkita guvoh tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Homiyini o'zgartirish uchun talablar faqat quyidagi shartlar asosida ko'rib chiqiladi:

- Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun berilgan arizada taqdim etilgan Homiyning ma'lumotlarida xato bo'lsa;
- Talabnoma Herbalife Mustaqil Hamkor maqomiga ariza qabul qilinganidan keyin 90 kun ichida taqdim etilsa;
- Amaldagi va da'vo qilingan homiy bir tashkilotda bo'lsa;
- Homiyini almashtirish uchun ariza bergan Mustaqil Hamkor Supervayzor maqomiga ega bo'lmasa;
- Ariza beruvchi Mustaqil Hamkor hali boshqa Mustaqil Hamkorlarning homiyi bo'lmasa

* *Homiyini o'zgartirish to'g'risidagi so'rov shakli va Homiyini almashtirish uchun rozilik shakli, axborot qo'llab-quvvatlash Bo'limida olinishi mumkin, ushbu shakllar boshqa zarur hujjatlar bilan birgalikda Herbalife talabnomalarni ko'rib chiqish uchun axborot qo'llab-quvvatlash Bo'limiga taqdim etilishi kerak. Notarial tasdiqlash o'rniga, har bir Mustaqil hamkor MyHerbalife.com veb-saytining shaxsiy kabinetdagi Onlayn qo'llab-quvvatlash orqali to'ldirilgan va guvohlar tomonidan imzolangan shakllarni taqdim etishi mumkin. Vyetnam uchun barcha shakllar notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Elektron pochta orqali yuborilgan notarial tasdiqlanmagan shakllar qabul qilinmaydi.*

10.9.2 Homiyini o'zgartirish so'rovi

Ko'p darajali marketingning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan Tashkilotning yaxlitligini himoya qilish uchun Homiyning o'zgarishi qabul qilinmaydi va va Herbalife tomonidan faqat eng istisno holatlardagina tasdiqlanadi.

Mustaqil Hamkor Homiyini faqat o'zining birinchi President's Team vakili Tashkiloti doirasida o'zgartirish haqida so'rov yuborishi mumkin.

Homiyni o'zgartirish to'g'risida so'rov yubormoqchi bo'lgan Mustaqil Hamkor avval so'rovni yuqori darajadagi Homiysi bilan muhokama qilishi kerak. Agar muhokamadan keyin ham Mustaqil Hamkor homiyni almashtirishga qaror qilsa, u Herbalife-ga to'ldirilgan, ikkita guvoh tomonidan tasdiqlangan Homiyni o'zgartirish to'g'risidagi so'rov shaklini* va ikkita guvoh tomonidan tasdiqlangan Homiyni almashtirish uchun rozilik shaklini taqdim etishi kerak/ chunki amaldagi homiy va barcha yuqori darajadagi Mustaqil Hamkorlar Xizmatlar uchun mukofotlar va Xizmatlar uchun Qo'shimcha mukofotlar, shu jumladan President's Team jamoasining faol vakili, Xizmatlar uchun 7% qo'shimcha Mukofot oladi. Bundan tashqari, Herbalife potentsial Homiydan ikki guvoh tomonidan tasdiqlangan rozilikni olishi kerak.

Agar mavjud va potentsial Homiylar bitta yuqori Homiyga ega bo'lsa va har ikkala Homiy (amaldagi va potentsial) [Savdo va Marketing Rejasiga](#) muvofiq bir xil maqom va mukofot darajasiga ega bo'lsa, Homiyni o'zgartirishni istagan Mustaqil Hamkor faqatgina amaldagi Homiydan ikkita guvoh tomonidan tasdiqlangan Homiyni almashtirish uchun rozilik shaklini, hamda ikki guvoh tomonidan tasdiqlangan potentsial Homiyning roziligini taqdim etishi lozim.

Agar Herbalife Mustaqil Hamkorning Homiyni almashtirish haqidagi iltimosini qondirsa, Mustaqil Hamkor o'zining quyi tashkiloti Mustaqil Hamkorlarini va imtiyozli Klientlarini saqlab qololmaydi.

Agar Homiyni o'zgartirish talabi rad etilsa, Mustaqil Hamkor, Mustaqil Hamkorning shartnomasini bekor qilishi va boshqa Homiy ostida Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun ariza berishdan oldin Harakatsizlik davriga rioya qilishi mumkin ("Harakatsizlik davri" qoidasiga o'ting)

** Homiyni o'zgartirish to'g'risidagi so'rov shakli va Homiyni almashtirish uchun rozilik shakli, axborot qo'llab-quvvatlash Bo'limida olinishi mumkin, ushbu shakllar boshqa zarur hujjatlar bilan birgalikda Herbalife talabnomalarni ko'rib chiqish uchun axborot qo'llab-quvvatlash Bo'limiga taqdim etilishi kerak. Notarial tasdiqlash o'rniga, har bir Mustaqil hamkor MyHerbalife.com veb-saytining shaxsiy kabinetdagi Onlayn qo'llab-quvvatlash orqali to'ldirilgan va guvohlar tomonidan imzolangan shakllarni taqdim etishi mumkin. Vyetnam uchun barcha shakllar notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Elektron pochta orqali yuborilgan notarial tasdiqlanmagan shakllar qabul qilinmaydi.*

10.10 Qoidalarga rioya qilishni nazorat qilish

Ushbu qoidalar Herbalife biznes imkoniyatlarini va brendini himoya qilish uchun mo'ljallangan. Qoidalarga rioya qilmaslik tartibga solish organlari, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikning Herbalife kompaniyasi, uning mahsulotlari va Mustaqil Hamkorlari haqidagi fikriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'plab holatlarda Qoidalarga rioya qilinmaslik Mustaqil Hamkorlarning biznesni to'g'ri va noto'g'ri ishlash usullari bo'yicha o'qitish va maslahat berish orqali hal etilsa-da, Qoidalarga rioya qilmaslik bundanda qattiqroq qarorlarga olib keladigan holatlar ham mavjud.

Mustaqil Hamkorlarga Herbalife va uning Mustaqil Hamkorlarining biznesdagi obro'sini va o'z obro'sini himoya qilish maqsadida Herbalife kompaniyasiga tegishli qoidalar bo'yicha nomuvofiqliklar haqida darhol xabar berish tavsiya etiladi. Herbalife, qoida tariqasida, Mustaqil Hamkor Qoidalarga nomuvofiqlik haqida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan boshlab bir (1) yil ichida berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi, lekin istalgan vaqtda har qanday masalani ko'rib chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.**

** Herbalife Qoidalarga rioya qilish daromad, biznesda obro'si yoki har qanday zarar uchun kompensatsiya to'lash majburiyati sifatida talqin qilinmasligi kerak.*

10.10.1 Shikoyat berish tartibi

Mustaqil Hamkorlar MyHerbalife.com saytda mavjud bo'lgan onlayn qo'llab-quvvatlash xizmati orqali Herbalife Kompaniyasiga Qoidalarga nomuvofiqliklar haqida xabar berishlari kerak. Xabarda shikoyatning tavsifi va taxmin qilingan nomuvofiqliklarni tasdiqlovchi haqiqiy ma'lumotlar bo'lishi kerak.*

Mustaqil Hamkorlarga mijoz yoki Mustaqil Hamkorning shikoyat qilishiga to'sqinlik qilish yoki ulardan bu uchun qasos olish taqiqlanadi.

** Haqiqiy ma'lumotlarga barcha shaxslarning ismlari, manzillari va telefon raqamlari, shuningdek sanalar, vaqtlar, joylar va boshqalar kiradi.*

10.10.2 Shikoyatni ko'rib chiqish

Herbalife o'z mutlaq xohishiga ko'ra, Qoidalarga mos kelmaslikni tasdiqlovchi yetarli ma'lumot mavjudligini aniqlasa, Herbalife vakili unga javob qaytarishga imkoniyat berish uchun shikoyatdagi Mustaqil Hamkor bilan bog'lanadi.

Ba'zi hollarda, masalani ko'rib chiqish jarayonida Mustaqil Hamkorning faoliyatiga cheklovlar kiritish talab qilinishi mumkin. Ushbu cheklovlar Herbalife tadbirlariga qatnashish ta'qiqini yoki quyidagi cheklovlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Sotib olish uchun imtiyozli huquqni to'xtatib turish yoki undan mahrum qilish;
- Xizmatlar uchun haq to'lashni to'xtatib turish yoki undan mahrum qilish;
- TAB Team jamoasi vakillariga Xizmatlar uchun Qo'shimcha Mukofot to'lashni to'xtatib qo'yish yoki undan mahrum qilish;
- Mukofot berishni to'xtatib turish yoki rad etish, yoki imtiyozlarni cheklash, yoki yo'qotish (masalan, kanikullarda ishtirok etish, nishonlar va boshqalar);
- Herbalife homiyligidagi o'quv seminarlari va boshqa tadbirlarida sahnaga chiqish huquqini to'xtatib qo'yish yoki bekor qilish;
- Mustaqil Hamkor tomonidan bajariladigan malakalarni to'xtatib turish yoki ularni bekor qilish;
- Herbalife Mustaqil Hamkori sifatida o'zini tanishtirish huquqini to'xtatib turish yoki u huquqdan mahrum qilish.

10.10.3 Sanksiyalar

Qoidalarga mos kelmaydigan xatti-harakatlar Herbalife kompaniyasiga huquqiy yoki ma'muriy oqibatlariga olib kelishi va barcha Mustaqil Hamkorlarning biznesini xavf ostida qo'yishi mumkin. Shuning uchun sanksiyalar qattiq bo'lishi mumkin.

Herbalife, ehtimol yoki haqiqiy oqibatlariga olib keladigan Qoidalar nomuvofiqligining tabiatiga qarab, tegishli sanksiyalarni aniqlash, shu jumladan:

- Mustaqil Hamkorning barcha huquqlari va imtiyozlarini to'xtatib turish;
- Pul sanksiyalari;
- Herbalife ning barcha huquqiy xarajatlarini qoplash majburiyati;
- Herbalife homiyligidagi tadbirlarda nutq so'zlash yoki qatnashmaslik;
- Mark Xyuzning yillik bonusini olish huquqidan mahrum qilish;
- Xizmatlar uchun Qo'shimcha mukofot to'lash dasturida ishtirok etish huquqidan mahrum qilish;
- Quyi Tashkilotning doimiy yo'qolishi;
- Hajmlar va mukofotlarni qayta hisoblash*;
- Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish (quyidagi Mustaqil Hamkor Shartnomasini Bekor Qilish qoidasiga qarang).

Agar Herbalife boshqa Mustaqil Hamkorlar aniqlangan qoidabuzarliklarga hissa qo'shgan, qoidabuzarlikka rag'batlantirgan yoki bevosita ishtirok etgan degan xulosaga kelsa, Herbalife ushbu Mustaqil Hamkorlarni qoidabuzarliklar uchun javobgarlikka tortishi mumkin.

Herbalife Kompaniyasi qoidabuzarlik sodir etgan Mustaqil Hamkorning ismi va familiyasini, qoida buzilish faktlari va holatlarini va qo'llanilgan sanksiyalarni nashr etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

[* Savdo va Marketing Rejasini manipulyatsiya qilish. Ta'qiqlangan savdo joylari. Uchinchi shaxslar tarqatishi uchun mahsulotlarni sotish va kim oshdi savdosi saytlari va uchinchi tomon onlayn savdo maydonchalarida sotishni Ta'qiqlash bilan bog'liq qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha tuzatish choralari hajmlar va mukofotlarni qayta hisoblashni o'z ichiga oladi.](#)

10.10.4 Qayta ko'rib chiqish uchun talablar (Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish bilan bog'liq emas)

Mustaqil Hamkor qaror qabul qilingan kundan boshlab 7 kun ichida Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi qaror ustidan apellyasiya berishi mumkin. Apellyasiya berilganda, Mustaqil Hamkor ko'rib chiqilishi kerak deb hisoblagan qo'shimcha ma'lumotni va bu ma'lumot tergov davomida taqdim etilmaganining sababini taqdim etishi mumkin. Agar apellyasiya 7 kun ichida berilmasa, u rad etiladi, ammo Herbalife o'z xohishiga ko'ra 7 kundan keyin taqdim etilgan dalillarni ko'rib chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi. Apellyasiya Sotuv bo'limi, Axborot ta'minoti va Yuridik bo'limlaridan ("Taftish komissiyasi") vakolatli vakillaridan tashkil topgan qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi.

10.10.5 Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish

Herbalife Mustaqil Hamkor xatti-harakatlari Qoidalarga mos kelmasa, Mustaqil Hamkor shartnomasini o'z ixtiyori bilan bekor qilishi mumkin.*

Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish Herbalife Mustaqil Hamkorga berilgan yozma xabarnomada ko'rsatilgan kundan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma bekor qilinganidan so'ng, Mustaqil Hamkor Herbalife Kompaniyasiga, Hamkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum bo'lishi natijasida, hech qanday da'vo qila olmaydi.

Mustaqil hamkor** quyidagilardan mahrum bo'ladi:

- Herbalife biznesini Herbalife Mustaqil Hamkori sifatida yuritish
- Herbalife Mustaqil Hamkori sifatida o'zini tanishtirish
- Herbalife savdo nomi, logotipi, savdo belgisi yoki intellektual mulkidan foydalanish
- Herbalife promoushenlarida, treninglarida, uchrashuvlarida, tadbirlarida hatto turmush o'rtog'i yoki Mustaqil Hamkorning mehmoni sifatida ishtirok etish

* *Bekor qilish-Mustaqil Hamkor shartnomasini to'liq bekor qilish va Herbalife biznesini amalga oshirish huquqidan mahrum etish demakdir. Bu Mustaqil Hamkor shartnomasi bekor qilingan kundan oldin yoki keyin bo'lganidan qat'i nazar, Mustaqil Hamkor biznesidan har qanday foyda olish huquqini bekor qilishni o'z ichiga oladi.*

** *Ushbu qoida, shuningdek, shartnoma bekor qilingan yoki boshqa biron-bir tarzda qoidalar nomuvofiqligi to'g'risidagi so'rov ko'rib chiqish natijasida Herbalife biznesini tark etgan Mustaqil Hamkorlar uchun qo'llaniladi.*

10.10.6 Appelyatsiya berish tartibi

Mustaqil Hamkor qaror qabul qilingan kundan boshlab 15 kun ichida Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi qaror ustidan apellyasiya berishi mumkin. Apellyasiya berilganda, Mustaqil Hamkor ko'rib chiqilishi kerak deb hisoblagan qo'shimcha ma'lumotni va bu ma'lumot tergov davomida taqdim etilmaganining sababini taqdim etishi mumkin.

Agar apellyasiya 15 kun ichida berilmasa, u rad etiladi, ammo Herbalife o'z xohishiga ko'ra 15 kundan keyin taqdim etilgan dalillarni ko'rib chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi. Apellyasiya Sotuv bo'limi, Axborot ta'minoti va Yuridik bo'limlaridan ("Taftish komissiyasi") vakolatli vakillaridan tashkil topgan qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi.

Taftish komissiyasi ko'pchilik ovozi bilan Mustaqil Hamkorning Shartnomasini bekor qilishni, Mustaqil Hamkorning Shartnomasini tiklashni qo'llab-quvvatlashi yoki da'vo qilingan nomuvofiqliklar uchun muqobil sanksiyalarni tavsiya qilishi mumkin. Mustaqil Hamkor Shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi qarorni ko'rib chiqishda Taftish komissiyasi da'vo qilingan nomuvofiqlik jiddiyligini ko'rib chiqadi.

Ammo, bu qaror Mustaqil Hamkor foyda ololmaganlik yoki biznesda obro'sini yo'qotganlik uchun Herbalife Kompaniyasi kompensatsiya to'lash majburiyatini anglatmaydi.

10.11 Qo'shimcha huquqiy qoidalar

Quyida keltirilgan "Shartnoma" atamasi Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun ariza va Mustaqil Hamkor va Herbalife o'rtasidagi shartnoma munosabatlarini bildiradi.

10.11.1 Zararni qoplash

Agar quyida keltirilgan qonunlar amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasa, na Herbalife, na Mustaqil Hamkor boshqa tarafga hech qanday cheklovsiz, biznes obro'sini yo'qotish, biznes imkoniyatlarini yo'qotish, foydali bitimlar, foyda yoki daromadlar uchun hech qanday bilvosita, kutilmagan, tasodifiy yoki o'ziga xos zararlar uchun javobgar bo'lmaydi, shartnoma, yoki boshqa har qanday Qonunchilik bazasi yoki adolat tamoyillariga qo'yiladigan talab va har qanday tomonning bunday yo'qotish ehtimoli ma'lum bo'lganligidan qat'iy nazar.

10.11.2 Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilish

Herbalife, Qoidalarning buzilishi yoki har qanday Mustaqil Hamkor bilan tuzilgan Shartnomaning har qanday shartlariga boshqa rioya qilmaslik munosabati bilan mutlaq xohishiga ko'ra choralar ko'rish huquqiga ega. Herbalife -ning har qanday Mustaqil Hamkor bilan tuzilgan har qanday shartnoma bo'yicha biron-bir huquq, vakolat yoki imkoniyatdan foydalanmaslik, rad etish yoki o'tkazib yubormaslik Herbalife -ning har qanday bunday shartnoma bo'yicha istalgan vaqtda o'z huquqlaridan voz kechishni anglatmaydi.

10.11.3 Shartnoma qoidalarining avtonomligi

Agar Herbalife va Mustaqil Hamkor o'rtasidagi har qanday Shartnomadagi biron bir qoida bekor qilingan, noqonuniy deb topilgan yoki biron bir tarzda ijro etilishi kerak bo'lsa, u shartnomadan olib tashlanishi kerak va shartnomaning qolgan qismiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligi kerak, Shartnomaning huquqiy kuchi o'zgarishsiz qoladi. Bundan tashqari, Shartnomaga avtomatik ravishda olib tashlangan bandga o'xshash va qonuniy, haqiqiy va bajarilishi majburiy bo'lgan band bilan almashtiriladi.

10.11.4 Amaldagi qonun va yurisdiksiya:

Ushbu shartnoma Herbalife va Mustaqil Hamkorlar o'rtasidagi munosabatlaridan kelib chiqadigan har qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Har qanday bunday nizo faqat O'zbekiston hududida joylashgan tegishli yurisdiksiya sudida sud tartibida hal etilishi kerak.

10.11.5 Zararni qoplash

Mustaqil Hamkor Herbalife-ga etkazilgan zararni qoplaydi va uni har qanday da'vo, harakat, talab, sud ta'qiblaridan, shu jumladan Mustaqil Hamkorning Herbalife Shartnomasi yoki biznes Qoidalarini buzishi bilan bog'liq barcha xarajatlar yoki majburiyatlar va zararlardan himoya qiladi. Herbalife, boshqa narsalar qatori, bunday zararni qoplash uchun Mustaqil Hamkorga qarzdor bo'lgan summalarni hisobga olishi mumkin.

10.11.6 Mustaqil Hamkorlar o'rtasidagi da'volar

Herbalife Mustaqil Hamkor oldida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita boshqa Mustaqil Hamkorlarning harakatlari, harakatsizligi, da'volarining natijasida ushbu Mustaqil Hamkor tomonidan qilingan har qanday xarajatlar, yo'qotishlar, zararlar yoki xarajatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

10.12 Shaxsiy ma'lumotlar va ma'lumotlar maxfiylikni himoyasi

Agar boshqasi ko'rsatilmagan bo'lsa, Herbalife "Shaxsiy ma'lumotlar" (masalan, ismingiz va familiyangiz, pochta manzili, shahar, shtat, pochta indeksi, telefon raqami, elektron pochta manzili, kredit karta va bank ma'lumotlari) ni herbalifeuzbekistan.com/ru saytida joylashgan o'z Maxfiylik siyosatiga muvofiq yig'adi va ishlatadi.

To'g'ridan-to'g'ri savdo biznesining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda, Herbalife Mustaqil Hamkorlari to'g'ridan - to'g'ri Herbalife-dan boshqa shaxslar to'g'risida shaxsiy ma'lumotlarni olishlari mumkin, masalan, Mustaqil Hamkorlarning quyi tashkilotidagi boshqa Mustaqil Hamkorlar, mijozlar yoki Herbalife mahsulotlari yoki xizmatlariga qiziqish bildiradigan shaxslar yoki bizning onlayn resurslarimiz va mobil ilovalarimizdan ("Saytlar") foydalanadigan shaxslar. (Quyi Tashkilot o'ziga xos Mustaqil Hamkor tomonidan shaxsan Homiylik qilingan barcha Mustaqil Hamkorlardan va o'z navbatida, keyingi Mustaqil Hamkorlar tomonidan Homiylik qilingan boshqa barcha Hamkorlardan iborat.) Herbalife Hamkorga shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etgandan so'ng, u buning uchun javobgardir va ma'lumotlarni qat'iy maxfiylikda saqlashi kerak. Mustaqil Hamkorlarlar, agar jismoniy shaxsning shaxsiy ma'lumotlarini boshqa maqsadlarda ishlatishga roziligini olmagan bo'lsalar, ushbu shaxsiy ma'lumotlardan faqat o'zlarining quyi Tashkilotlari, mijozlari yoki mahsulot yoki biznes imkoniyatlariga qiziqqan odamlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida foydalanishlari mumkin.

Herbalife Mustaqil Hamkorlar bilan ma'lumot almashish usullaridan biri bu tashkilot hisobotlaridir. Ushbu hisobotlarda Mustaqil Hamkorning quyi Tashkilotidagi boshqa Mustaqil Hamkorlar to'g'risidagi ma'lumotlar, masalan, to'liq ism va aloqa ma'lumotlari, Herbalife identifikatsiya raqami va daraja yoki status, hajm va savdo statistikasi kabi biznes ko'rsatkichlari mavjud. Bunday hisobotlar Mustaqil Hamkorlarga qat'iy sir saqlash ostida va yagona maqsad - Mustaqil Hamkorlarni Herbalife biznesini yanada rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash uchun beriladi. Bunday hisobotlar, shu jumladan, barcha shaxsiy ma'lumotlar va ular tarkibidagi boshqa ma'lumotlar Herbalife maxfiy savdo siridir. Mustaqil Hamkorlar Herbalife ning boshqa Mustaqil Hamkorlari, ularning mijozlari haqida maxfiy ma'lumotlarni yoki shaxsiy yoki umumiy ma'lumotni olishlari, tarqatishlari yoki to'plashlari mumkin emas, ular o'zlarining quyi Tashkilotlariga aloqador bo'lgan holler - faqat Herbalife biznesini rivojlantirish va quyi Hamkorlarni boshqarish, rag'batlantirish va o'qitish maqsadi bundan mustasno.

Mustaqil Hamkorlar, shuningdek, shaxsiy ma'lumotni bevosita yoki boshqa yo'llar bilan to'plashlari mumkin, masalan, mahsulot buyurtmalarini qayta ishlash uchun mijozlardan aloqa va to'lov ma'lumotlarini to'plashda.

Mustaqil Hamkorlar amaldagi maxfiylikni saqlash va ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi Qonunlarga, shu jumladan ma'lumotlarni uzatish xalqaro cheklovlariga va ma'lumotlar sub'ektlarining huquqlariga oid qoidalarga, masalan, Herbalife Mustaqil Hamkori ma'lumotlarni qayta ishlashga ruxsat va cheklov huquqiga yoki qayta ishlashga qarshi e'tirozlarga, Mustaqil Hamkor tomonidan olingan barcha shaxsiy ma'lumotlarga (Herbalife-dan yoki boshqa yo'l bilan) biznes bilan bog'liq holda rioya qilishlari kerak.. Bundan tashqari, Mustaqil Hamkor o'zi olgan barcha shaxsiy ma'lumotlarning yaxlitligi, xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlash uchun etarli huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni (masalan, ishonchli parolni himoya qilish va shifrlash) amalga oshirish uchun javobgardir. Mustaqil Hamkor, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilikni qaytarib olishni to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar sub'ektidan qabul qilishi va rozilik bekor qilingan taqdirda qayta ishlashni to'xtatishi shart.

10.13 Ta'riflar

Ariza va Shartnoma: Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun Ariza va Shartnoma va Mustaqil Hamkor va Herbalife kompaniyasi o'rtasidagi barcha shartnoma munosabatlari, shu jumladan Savdo va Marketing Rejasi, Mustaqil Hamkorlar uchun Qoidalar va MyHerbalife.com saytida e'lon qilingan boshqa hujjatlar.

Birlashma: Ajralish yoki Turmush o'rtog'i bilan munosabatlarni tugatish, daromadlar foizini hisoblash uchun ajrashgan juftlik yoki sobiq turmush o'rtog'lar o'rtasidagi dastlabki Hamkorlik va individual Hamkorlik faoliyati o'rtasidagi Hajmning kombinatsiyasi.

Biznesni rivojlantirish vositalari: Herbalife tomonidan ishlab chiqarilmaydigan, yordamchi savdo vositalari.

Bayonot: Herbalife® mahsulotlari yoki Herbalife biznes imkoniyatlari haqida har qanday bayonot, hikoya, rasm yoki video.

Klub: Sog'lom Turmush Tarzi Klubi.

Noturar joydagi klub: noturar joy ichida joylashgan Klub.

Kompaniya: Herbalife Distribution Ltd.

Mijoz: Imtiyozli Mijozlar yokichakana mijozlar

Hissa: Mustaqil Hamkorga xizmat ko'rsatish yillik haqi

Keng auditoriya: ilgari Mustaqil Hamkor shaxsan muloqot qilmagan odamlar.

Herbalife intellektual mulki: mualliflik huquqi bilan himoyalangan Herbalife materiallari, savdo belgilari, tovar nomlari, boshqa Brendlash shakllari va tijorat sirlarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich to'plam: Herbalife Mustaqil Hamkor to'plami. Bu Herbalife Mustaqil Hamkoriga o'z homiysi tomonidan biznes yuritish uchun bepul beriladigan boshlang'ich to'plamdir.

Herbalife® mahsulotlari: Herbalife Kompaniyasi tomonidan sotiladigan va ushbu mahsulotlardan foydalangan holda Mustaqil Hamkorlar tomonidan tayyorlangan barcha mahsulotlarni o'z ichiga oladi.

Herbalife xarajatlarni qoplash siyosati: Herbalife barcha mijozlar uchun 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida mahsulot narxini to'liq qoplashni kafolatlaydi.

Potensial mijozlar: Herbalife® mahsulotlarini sotib oladigan yoki Herbalife biznes imkoniyatlaridan foydalanadigan potensial mijozlar.

Turmush o'rtog'i: Herbalife Mustaqil Hamkori tomonidan "Turmush o'rtog'ini qo'shish uchun ariza shakli" orqali Turmush o'rtog'i sifatida ko'rsatilgan shaxs.

Turmush tarzi bayonotlari: daromad bayonotlarining bir turi. Mustaqil Hamkor Herbalife biznes imkoniyatlaridan foydalangan holda ma'lum bir turmush tarzini olib borishi yoki ma'lum tovarlarni sotib olishi mumkinligini bildiradigan yoki nazarda tutadigan har qanday bayonot.

Mustaqil Hamkor Tashkiloti to'g'risidagi hisobotlar: Ushbu hisobotlarda Mustaqil Hamkorning quyi tashkilotida bo'lgan boshqa Mustaqil Hamkorlar va Imtiyozli Mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar, masalan, familiya, ism, aloqa ma'lumotlari, ID raqami va biznes ko'rsatkichlari, masalan, daraja yoki status, Hajm va savdo statistikasi.

Materiallar: Herbalife tomonidan ishlab chiqarilgan adabiyot va biznesni rivojlantirish vositalari.

Mustaqil Hamkor: Mustaqil Hamkor maqomini olish uchun ariza va Shartnomasi Herbalife tomonidan qabul qilingan va ro'yxatdan o'tqazilgan shaxs.

Hamkorlik: Herbalife Mustaqil Hamkorining mustaqil biznesi.

Axborotni qo'llab-quvvatlash bo'limi: Herbalife axborot qo'llab-quvvatlash Bo'limi, Bo'lim bilan 0 800 200 10 20 telefon orqali bog'lanish mumkin.

Sog'lom turmush tarzi klublari: sog'lom turmush tarzi Klublari Herbalife® mahsulotlarini iste'mol qilish orqali to'g'ri ovqatlanishga e'tibor qaratadigan odamlarni qo'llab-quvvatlaydigan insonlar jamoasini tashkil qiladi.

Sog'lom turmush tarzi Klubi tashkilotchisi: "Tashkilotchi"- shuningdel sog'lom turmush tarzi Klubida ishlaydigan Herbalife Mustaqil Hamkoridir.

Shaxsiy ma'lumotlar: shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, masalan, ism, familiya, pochta manzili, shahar, mamlakat, pochta indeksi, telefon raqami, elektron pochta manzili, bank kartasi raqami va bank ma'lumotlari.

Imtiyozli Mijoz: Imtiyozli Mijoz Herbalife mahsulotini to'g'ridan-to'g'ri Kompaniyadan chegirma bilan sotib olish huquqiga ega. (1) Herbalife Savdo va Marketing rejasi bo'yicha Herbalife mahsulotlari va xizmatlarini sotish; (2) Herbalife Mustaqil Hamkorlari yoki Imtiyozli Mijozlari sifatida boshqalarni jalb qilish yoki Homiylik qilish; yoki (3) Herbalife Savdo va Marketing Rejasi bo'yicha har qanday Mukofot olish huquqiga ega bo'lish uchun Herbalife Mustaqil Hamkori bo'lishi kerak.

Taftish komissiyasi: Mustaqil Hamkor shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi qarorlarni qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqadigan komissiya. Savdo Bo'limining vakolatli vakili, axborotni qo'llab-quvvatlash Bo'limi va yuridik Bo'limi vakillaridan iborat.

Biznes yuritish Qoidalari: Herbalife Mustaqil Hamkorlari uchun chiqariladigan Qoidalar, siyosatlar va tavsiyalar.

Savdo va Marketing Rejasi: Herbalife-ning o'ziga xos Savdo va Marketing Rejasini aks ettiruvchi hujjat.

Homiy: Herbalife-ga boshqa shaxsni Mustaqil Hamkor yoki Imtiyozli Hamkor sifatida olib keladigan Mustaqil Hamkor.

Uchinchi tomon saytlari: auktsion saytlari va uchinchi tomon onlayn savdo maydonchalari.

Huquqiy voris: Mustaqil Hamkor Shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlar berilgan Mustaqil Hamkor.

Tsedent: Mustaqil Hamkor shartnomasi bo'yicha boshqa Mustaqil Hamkorga huquq va majburiyatlarni topshiradigan sobiq Mustaqil Hamkor.

Правила ведения бизнеса

Данные Правила ведения бизнеса (далее “Правила”) вместе с материалами, содержащимися в них, являются частью Договора на получения статуса Независимого Партнера. Компания Herbalife может периодически вносить изменения в Правила, о чем Независимые Партнеры будут уведомлены по электронной почте.

Оглавление

1	Начало работы	4
1.1	Независимые Партнеры являются Индивидуальными Предпринимателями	4
1.2	Отсутствие необходимости брать в долг или делать обязательные приобретения	4
2	Продажа продукции Herbalife	4
2.1	Запрещенные места продажи	4
2.2	Бланки розничного заказа и документы о продаже	4
2.3	Возмещения клиентам	4
2.4	Агрессивные продажи	4
2.5	Продажа продукции для распространения третьими лицами	5
2.6	Изменение упаковки, этикетки и материалов	5
2.7	Описание продукции и рекомендации по использованию	5
2.8	Идентификация	5
3	Реклама	5
3.1	Заявления	5
3.2	Реклама цен	5
3.3	Интеллектуальная собственность Herbalife	5
3.4	Запрет рекламы	6
4	Основы Плана Продаж и Маркетинга	6
4.1	Один Договор Независимого Партнера на одного человека	6
4.2	Приобретение продукции надлежащим образом	6
4.3	Ответственность за действия лиц, участвующих в развитии бизнеса	6
4.4	Период неактивности	7
5	Спонсорство и лидерство	7
5.1	Заявление на получение Дополнительного Вознаграждения за услуги участниками команды TAB Team	7
5.2	Невмешательство в другой бизнес	7
5.3	Ассоциация с Herbalife	7
5.4	Продвижение других бизнес-возможностей	7
5.5	Продажа инструментов для развития бизнеса	7
6	Прямые продажи	7
6.1	Манипулирование Планом Продаж и Маркетинга	8
6.2	Клиентский сервис	8
6.3	Лидерская поддержка и обучение Организации	8
6.4	Запрет на продажи на сайтах-аукционах и сторонних торговых онлайн-площадках (совместно именуемых «Сторонние сайты»)	8
